OLIY TA’LIM TIZIMI KADRLARINI QAYTA TAYYORLASH VA MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI HUZURIDAGI PhD.03/2025.27.12.Ped.33.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH QOSHIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH

NIZOMIY GANJAVIY NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

ISMAILOV ABDUVALI ABDUMALIKOVICH

UMUMTA’LIM MUASSASALARI RAHBAR KADRLARINING BOSHQARUV KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH VOSITASIDA TA’LIM SIFATINI OSHIRISH STRATEGIYALARI

13.00.07 – Ta’limda menejment

PEDAGOGIKA fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Toshkent – 2026

UO‘K:37:014:37.091.36:005.34.21

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора наук (DSc)

Contents of the abstract of doctor (DSc) dissertation

Ismailov Abduvali Abdumalikovich
Umumta’lim muassasalari rahbar kadrlarining boshqaruv kompetentligini rivojlantirish vositasida ta’lim sifatini oshirish strategiyalari ……..... 3

Исмаилов Абдували Абдумаликович
Стратегии повышения качества образования посредством развития управленческой компетентности руководящих кадров общеобразовательных учреждений……..... 39

Ismailov Abduvali Abdumalikovich
Strategies for enhancing the quality of Education through the Development of Management competence of leaders in general education institutions…… 81

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of published works……. 88

OLIY TA’LIM TIZIMI KADRLARINI QAYTA TAYYORLASH VA MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI HUZURIDAGI PhD.03/2025.27.12.Ped.33.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH QOSHIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH

NIZOMIY GANJAVIY NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

ISMAILOV ABDUVALI ABDUMALIKOVICH

UMUMTA’LIM MUASSASALARI RAHBAR KADRLARINING BOSHQARUV KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH VOSITASIDA TA’LIM SIFATINI OSHIRISH STRATEGIYALARI

13.00.07 – Ta’limda menejment

PEDAGOGIKA fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Toshkent – 2026

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2026.1.DSc/Ped.1369 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya O‘zbekiston milliy pedagogika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.bimm.uz) va "ZiyoNet" ta’lim portaliga (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:	**Ibragimov A’lamjon Amrilloyevich** pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Rasmiy opponentlar:	**Mustafoyeva Durdona Asilovna** pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent.
	Xo‘jayev Alijon Atabekovich pedagogika fanlari doktori (DSc), professor.
	Urakov Sherzod Raxmonovich pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent.
Yetakchi tashkilot:	**Chirchiq davlat pedagogika universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Oliy ta’lim tizimi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti huzuridagi PhD.03/2025.27.12.Ped.33.01 raqamli ilmiy kengash asosida tuzilgan bir martalik ilmiy kengashning 2026-yil 12. 11 kuni soat 14⁰⁰ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Ziyo ko‘chasi, 3-uy. E-mail: info@bimm.uz.)

Dissertatsiya bilan Oliy ta’lim tizimi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№47 raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Ziyo ko‘chasi, 3-uy. E-mail: info@bimm.uz)

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil «26» 10 da tarqatildi.
(2026-yil «26» 10 dagi 20 raqamli reyestr bayonnomasi).

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI HUZURIDAGI OLIY TA’LIM TIZIMI KADRLARINI QAYTA TAYYORLASH VA MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI

U.Sh.Begimkulov
Ilmiy daraja beruvchi Ilmiy kengash raisi, p.f.d., professor

A.S.Djurayev
Ilmiy daraja beruvchi Ilmiy kengash kotibi, p.f.d. (DSc) dotsent

K.Sh.Muradkasimova
Ilmiy daraja beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, p.f.d. (DSc), dotsent

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon miqyosida ta’lim menejmenti sohalarini raqamli transformatsiya va strategik boshqaruv mexanizmlari orqali integratsiyalash, rahbarning pedagogik liderlik ko‘nikma va malakalarini obyektiv baholash, dasturlarini yaratish, shaxsiylashtirilgan hamda uzluksiz professional rivojlanishini ta’minlashga qaratilgan pedagogik va strategik yo‘nalishlar amaliyotga joriy etilmoqda. Bu, o‘z navbatida, YUNESKO va OECD tomonidan tavsiya etilgan “hayot davomida ta’lim olish”[1] hamda “moslashuvchan ta’lim tizimlari”[2] tamoyillarini amalga oshirish uchun, xalqaro sifat ko‘rsatkichlariga mos ta’lim tizimini kompleks modernizatsiyalash, rahbar kadrlarning boshqarish kompetensiyasini rivojlantirish orqali maktablarda ta’lim sifatini barqaror ravishda oshirish samaradorligini ta’minlash bo‘yicha tizimli ishlar olib borilmoqda.

Jahon ta’lim va ilmiy tadqiqot muassasalarida umumta’lim muassasalari rahbar kadrlarining boshqaruv kompetentligini karera pog‘onalarida rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish, pedagogik liderlik, ta’lim sifatini oshirish strategiyalarini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Umumta’lim muassasalari rahbar kadrlarining boshqaruv mahoratini o‘quv jarayoni bo‘yicha liderlik va o‘zgarishlar agenti modellari asosida diversifikatsiyalash, ta’limning institutsionallashtirilgan va norasmiy turlaridan foydalanish, personallashtirilgan rivojlanish trayektoriyalarini shakllantirish, kasbiy ehtiyojlarni unifikatsiyalashga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarga e’tibor berilmoqda.

Respublikamizda so‘nggi yillarda umumta’lim muassasalari rahbar kadrlarining boshqaruv jarayonlarini ilmiy asosda tizimlashtirish, ularning uzluksiz kasbiy rivojlanishini samarali va barqaror tarzda tashkil etishning me’yoriy-huquqiy asoslari yaratilmoqda. “....maktab ta’limi muassasalari rahbar kadrlarini tayyorlash va ularning doimiy kasbiy rivojlanishini ta’minlovchi o‘quvlar tashkil qilish...”[3], ustuvor vazifa etib belgilangan. Mazkur vazifalar ijrosi rahbar kadrlar kasbiy kompetentligini rivojlantirishning tashkiliy-boshqaruv, pedagogik mexanizmlarini kasbiy ta’lim sifatini oshirish borasidagi innovatsion yondashuvlar asosida takomillashtirish hamda sifat menejmenti tizimini tashkiliy-didaktik imkoniyatlarini kengaytiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi, 2022-yil 11-maydagi PF-134-son “2022 - 2026 yillarda maktab ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida”gi, 2023-yil 26-maydagi PF-79-son “Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi hamda uning tizimidagi tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2026-yil 16-fevraldagi PF-21-son “Mamlakat

[1] UNESCO Institute for Lifelong Learning. (2016). Harnessing the Potential of ICTs for Lifelong Learning.
[2] UNESCO. (2021). Reimagining our futures together: A new social contract for education.
[3] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 25-yanvardagi “Maktabgacha va maktab ta’limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo‘llab-quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlanish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4963-son qarori

taraqqiyotining 2030-yilgacha mo‘ljallangan ustuvor yo‘nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonlari, 2024-yil 21-iyundagi PQ-231-son “Maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlari xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorlari, Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 25-dekabrdagi 681-son “Davlat umumiy o‘rta ta’lim muassasalari direktori lavozimiga nomzodlarni menejerlik o‘quv kurslarida o‘qitish va ularga menejerlik sertifikatini berish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi, 2024-yil 20-dekabrdagi 867-son “Maktabgacha va maktab ta’limi xodimlarining uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi qarorlari hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me’yoriy normativ hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” nomli ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi[4].

Jahonda umumiy o‘rta ta’lim muassasalari rahbar kadrlarining kasbiy va boshqaruv kompetentligini rivojlantirishga bag‘ishlangan ilmiy izlanishlar dunyoning yetakchi ilmiy markazlari, jumladan, **UNESCO**; National Institute of Education (NIE), Nanyang Technological University **(Singapur)**; Seoul national University - (Seoul Daehakgyo), Korean Educational Development Institute (KEDI) - **(Janubiy Koreya)**; China National Academy of Educational Sciences (CNAES) **(Xitoy)**; Российская академия образования - Federal State Budgetary Institution “Russian Academy of Education” **(Rossiya)**; Stanford Graduate School of Education (SGSE) **(AQSh);** UCL Institute of Education (IOE) University College London **(Angliya)**; National Institute for School Teachers and Staff Development (NITS) - **(Yaponiya)** da olib borilmoqda.

Jahonda umumiy o‘rta ta’lim muassasalari rahbar kadrlarining kasbiy va boshqaruv kompetentligini rivojlantirishga oid tadqiqotlar asosida quyidagi ilmiy natijalarga erishilgan: Xususan: maktab liderligi va ta’lim boshqaruvini karyera pog‘onalariga asoslangan rivojlanish modeli ishlab chiqilgan hamda ta’lim jarayonini strategik boshqarish samaradorligi aniqlangan (Singapur Milliy Ta’lim instituti); maktab rahbarlarining pedagogik liderlik modeli hamda ta’lim jarayonini samarali tashkil etish va boshqarishga doir konseptual yondashuvlar aniqlangan

[4] Mazkur bandni yozishda quyidagi manbalardan foydalanildi: Shu-Shing Lee, Bee Leng Chua, Alexius Chia, Monica Woei Ling Ong, Pamela Costes-Onishi. Teacher Professional Learning: The Singapore “Springer Nature Singapore Pte Ltd”. – 2025. – 335 p. ISBN 978-981-96-4713-2. DOI: https://doi.org/10.1007/978-981-96-4714-9Perspective; https://www.ntu.edu.sg/nie/programmes/professional-programmes/leaders-in-education-programme; https://library.snu.ac.kr; https://www.kedi.re.kr/eng/research; https://www.cnaes.edu.cn; https://aspirant.raop.ru; https://library.stanford.edu/libraries/cubberley-education-library; https://www.ucl.ac.uk/library/using-library/libraries-and-study-spaces/ioe-library; https://www.nits.go.jp/materials

(Seul milliy universiteti); maktab direktorlarining strategik boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirish hamda ta’lim tizimini modernizatsiya qilish mexanizmlari ishlab chiqilgan (Koreya ta’limni rivojlantirish instituti); ta’lim sifati va o‘quvchilarning ta’lim natijalari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik hamda boshqaruv samaradorligining amaliy natijalari ilmiy-nazariy asoslangan (Xitoy ta’lim fanlari milliy akademiyasi); ta’lim tashkilotlari rahbarlarini boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan innovatsion boshqaruv modeli ishlab chiqilgan (Rossiya ta’lim akademiyasi); maktab rahbarlarining o‘quv jarayonini samarali boshqarishga qaratilgan yetakchiligi - “instructional leadership” modeli hamda ma’lumotlarga asoslangan boshqaruv qarorlarini qabul qilish mexanizmlari ilmiy jihatdan asoslangan (Stenford universiteti ta’lim oliy maktabi); ta’lim liderligi va maktabni strategik rivojlantirishga qaratilgan “Educational Leadership and School Improvement” modeli ishlab chiqilgan (London universitet kolleji Ta’lim instituti); maktab rahbarlari va pedagog kadrlarning professional rivojlanishiga yo‘naltirilgan jamoaviy boshqaruv, hamkorlikda o‘qitish hamda Lesson Study metodikasi asosida ta’lim sifatini oshirish tizimi ilmiy-nazariy jihatdan asoslanib (Yaponiya maktab o‘qituvchilari va xodimlarini rivojlantirish milliy instituti) amaliyotga tatbiq etilgan.

Jahonda umumta’lim muassasalari rahbar kadrlarining boshqaruv kompetentligini takomillashtirish bo‘yicha bir qator, jumladan, quyidagi yo‘nalishlarda tadqiqotlar olib borilmoqda: strategik menejment, transformatsion liderlik, ma’lumotlarga asoslangan qaror qabul qilish texnologiyalarini amaliyotga tadbiq etish, ta’lim sifatiga ta’sir etuvchi omillarni optimallashtirish, raqamli pedagogika va gibrid ta’lim texnologiyalari negizida rahbar kadrlarning individual kasbiy rivojlanish trayektoriyasini loyihalash, ta’lim sifatini baholashda xalqaro indikatorlar bilan korrelyatsiyalangan ichki sifatni ta’minlash tizimlarini joriy etish hamda raqamlashtirilgan pedagogik dizayn vositalari asosida strategik loyihalashtirishga qaratilgan ilmiy izlanishlarga e’tibor qaratilmoqda.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Mamlakatimizda pedagog kadrlarning kasbiy mahoratini rivojlantirish va malaka oshirish tizimini takomillashtirish A.Ibragimov, R.Isyanov, M.Mirsaliyeva, N.Muslimov, D.Shadimetova, T.Shoymardonovlar[5]; malaka oshirish muassasalarida ta’lim sifati menejmentini takomillashtirish masalalariga doir R.Djurayev, Sh.Qurbonov, E.Seytxalilov, Ya.Ismadiyarov, A.Magrupov, M.Saidov, S.Turg‘unov, M.Yuldashevlar[6]; maktab rahbarining boshqaruv faoliyati, boshqaruv

[5] Ibragimov A.A. Xalq ta’limi xodimlari malakasini oshirish tizimini ko‘p vektorli yondashuv asosida takomillashtirish: Dis. … ped. fanl. bo‘yicha fals. – T.: 2018. – 186 b.; Isyanov R.G. va boshqalar. Oliy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilarining malakasini oshirish texnologiyalari. Monografiya – T.: Fan., 2011. – 256 b.; Mirsaliyeva M.T., Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish: Aftoref. ped. fan. d-ri. – T.: 2019. – 67 b.; Muslimov N.A. Kasb ta’limi o‘qituvchisini kasbiy shakllantirish- ning nazariy-metodik asoslari: Ped. fan. dok. ... d-ri. –T.: 2007. – 315 b.; Shadimetova D.X.Ta’lim xizmatlari bozorida malaka oshirish tizimi marketing strategiyasini takomillashtirish (iqtisodiyot sohasi professor-o‘qituvchilari malakasini oshirish institutlari misolida): Iqtis. fan. nomz... d-ri. – T.: 2011. – 155 b.; Shoymardonov T.T. Pedagog kadrlar malakasini oshirishi va kasbiy faoliyati monitoringini tashkil etishning elektron tizimi: Avtoref. ped. fanl. fals. d-ri. – T.: 2017. – 52 b.;

[6] R.X.Djurayev, S.T.Turg‘unov “Ta’lim menejmenti”. T.: “Voris-nashriyot”. 2006.; Qurbonov Sh.E., Seytxalilov E.A. Upravlenie kachestvom obrazovaniya. -T.: Sharq, 2004. -552 s.; Ismadiyarov.Ya.U. Oliy pedagogik ta’lim tizimida innovatsion menejmentni shakllantirish mexanizmlarini takomillashtirish: Ped.fan.dok. ...diss. avtoref. -T., 2018. - 32

kompetensiyasi, sifat menejmenti va strategik-tashkiliy faoliyati orqali ta’lim sifatini oshirish M.Baybayeva, N.Mamanazarova, F.Abdullayev N.Jo‘rayeva, M.Pardayeva, D.Temirov, E.Xudoyberdiyev, L.Sultonovalar[7] tomonidan tadqiq etilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi (MDH) mamlakatlarida malaka oshirish jarayonini takomillashtirish, kompetensiyalarni boshqarish va o‘zini takomillashtirish M.Vayndorf-Sysoyeva, V.Paramzina, T.Bazarov, B.Yermina, I.Zimnyaya, E.Zeer, Ye.Kudryavtsevalar[8]; strategik va pedagogik menejment, ta’lim muassasalarini boshqarish nazariyasi, boshqaruv kompetentligini rivojlantirish hamda ta’lim sifatini monitoring qilish V.Lazarev, A.Zub, Yu.Lapigin, O.Vixanskiy, Yu.Konarjevskiy, V.Zvereva, N.Kuxarev, V.Reshetko, A.Moiseyev[9]lar ilmiy tadqiqotlar olib borgan.

Xorijiy davlatlarda maktab rahbar kadrlarining ta’lim natijalariga ta’sirini, malaka oshirish jarayonlari V.Robinson, K.Leithwood, D.Bartram, W.Hutmacher,

---

b.; Magrupov A.M. Oliy ta’lim tizimida strategik va funksional menejmentni integratsiyalash mexanizmlarini takomillashtirish: Ped.fan.dok. (DcS). ….diss. avtoref. -T.: 2017. 31 b.; Тургунов С.Т. Теоретические основы управленческой деятельности директора средних общеобразовательных учреждений. Автореф.дис. ...докт.пед.наук.-Т.: 2007-43 с.; Yuldashev M.A. Xalq ta’limi xodimlarining malakasini oshirishda ta’lim sifati menejmentini takomillashtirish: Avtoref. ped. fan. d-ri. – T.: 2016. – 93 b.

[7] Baybayeva M.X. Ta’lim muassasasi rahbarining boshqaruv faoliyatida sog‘lom va ijodiy muhitni yaratish mexanizmlarini takomillashtirish. DSc.Aftoref. fan. d-ri. – T.: 2022. – 75 b.; Mamanazarova N.K. Xalq ta’limi tizimi boshqaruvida marketing xizmatlarini tashkil etish mexanizmini takomillashtirish DSc.Aftoref. fan. d-ri. – T.: 2023. – 72 b.; Abdullayev F. R. Maktabda ta’lim sifatini boshqarishda baholashning innovatsion usullarini joriy etish mexanizmini takomillashtirish. Diss... ped. fanl. bo‘yicha fals. – T.: 2023. – 137 b.; Jo‘rayeva N.J. Maktab ta’limida sifat menejmentini joriy etishning tashkiliy-pedagogik sharoitlarini takomillashtirish. Aftoref. ped. fan. d-ri. – T.: 2022. – 50 b.; Pardayeva M. D. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida kompetensiyaviy yondashuvni joriy etishning metodik tizimini boshqarish (informatika va axborot texnologiyalari fani misolida) Aftoref. ped. fan. d-ri. – T.: 2020. – 54 b.; Temirov D. Sh. Umumiy o‘rta ta’lim muassasasini boshqarishning metodologik va tashkiliy-pedagogik asoslarini takomillashtirish. Aftoref. ped. fan. d-ri. – T.: 2019. – 52 b.; Xudoyberdiyev E.U. Umumta’lim muassasalarini boshqarish strategiyasini ishlab chiqish mexanizmini takomillashtirish. Aftoref. ped. fan. d-ri. – T.: 2025. – 53 b.; Sultonova L.A. Umumiy o‘rta ta’lim maktab direktorlarining boshqaruv faoliyatini baholash mexanizmlarini takomillashtirish (rahbarning boshqaruv kompetentligi ko‘rsatkichlari asosida).

[8] Вайндорф-Сысоева М.Е. Многоуровневая подготовка педагогических кадров к профессиональной деятельности в условиях цифрового обучения: Автореф. дис. ... докт. пед. наук. – М.: 2019. – 39 с.; Парамзина В.В. Моделирование содержания учебных курсов дистанционного обучения в системе повышения квалификации работников образования: Дис. … канд. пед. наук. – Пермь., 2007. – 155 с.; Базаров Т.Ю., Ермина Б.Е. Управление персоналом: Учебник для вузов /Под ред. Т.Ю. Базарова, Б.Л. Еремина. — 2-е изд., перераб. и доп. — М: ЮНИТИ, 2002. - 560 с.; Зимняя И.А. Ключевые компетенции - новая парадигма результата образования//Эксперимент и инновации в школе. 2009. №2.; Зеер Э.Ф. Психолого-дидактические конструкты качество профессионального образования// Образование и наука. 2002. №2 (14).; Кудрявцева Е.И. Компетенция и менеджмент: компетенции в менеджменте, компетенции менеджеров, менеджмент компетенции. Санк Петербург, 2012-340 с.;

[9] Лазарев Б.С. Системное развитие школы. - М.: Педагогическое общество России, 2002. - 304 с.; Зуб А.Т., Локтионов М.В. Стратегический менеджмент. Системный подход. Издательство «Генезис», 2011 г. 848 с; Лапыгин Ю.Н. Основы стратегического управления. - Владимир, ВлГУ, ВИБ, 2002. - 220 с.; Виханский О.С. Стратегическое управление. - М.: Гардарики, 1999. -292 с.; Конаржевский Ю.А. Менеджмент и внутришкольное управление: Метод, рекомендации для руководителей. - М.: ОЦ Педпоиск, 1999. -224 с.; Зверева В.И. Организационно-педагогическая деятельность руководителя школы. - М.: Новая школа, 1997. - 319 с.; Кухарев Н.В., Решетко В.С. Стимулирование педагогического творчества: учебно-методическое пособие для педагогов [Stimulation of pedagogical creativity: educational and methodical manual for teachers]. Minsk, 2011, 143 p. [in Russian]; Моисеев А. М. Стратегическое управление школой: вопросы и ответы: монографическое практико-ориентированное научно-методическое пособие для руководителей образовательных организаций: в 2 т. / А. М. Моисеев; под ред. О. М. Моисеевой. – М.: АСОУ, 2014. – Т. 2. – 384 с.

D.Raven[10]; maktab rahbarligida o‘zgarish va islohotlarni boshqarish, ularning boshqaruv faoliyatini baholash Ph.Hallinger, R.Heck, K.Cheema, K.Leithwood, M.Nvogbo, J.Murphy, J.Sani, R.Knoop, R.Common, J.Stronge[11]lar tomonidan tadqiq etilgan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti ilmiy tadqiqot rejasining “Pedagogik yo‘nalishlar va mutaxassisliklar bo‘yicha ilg‘or pedagogika texnologiyalarini joriy etish, pedagog kadrlarni sifatli tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, elektron ta’lim resurslarini yaratish va takomillashtirish, o‘quv jarayoniga zamonaviy pedagogika, multimedia va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish” nomli ustuvor yo‘nalish doirasida bajarilgan (2020-2024yy.).

Tadqiqotning maqsadi umumta’lim muassasalari rahbar kadrlarining boshqaruv kompetentligini rivojlantirish vositasida ta’lim sifatini oshirish strategiyalarini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

umumta’lim muassasalari rahbarlarining boshqaruv kompetentligini rivojlantirish vositasida ta’lim sifatini oshirish strategiyalarining o‘quv natijalariga ta’sirini aniqlashtirish;

rahbarlarning kasbiy karyera pog‘onalari bilan uzviy bog‘liq holda boshqaruv kompetensiyasini rivojlantirishning konseptual modelini takomillashtirish;

umumta’lim muassasalari rahbar kadrlarining mustaqil boshqaruv kompetensiyalarini va ta’lim sifatini oshirish muhitini tashkiliy-pedagogik mexanizmlarini ishlab chiqish;

---

[10] Robinson, V.M.J., Lloyd, C.A., & Rowe, K.J. (2008). The impact of leadership on student outcomes: An analysis of the differential effects of leadership types. Educational Administration Quarterly, 44(5), 635–674.; Leithwood, K., & Jantzi, D. (2000). The effects of transformational leadership on organizational conditions and student engagement with school. Journal of Educational Administration, 38(2), 112–129.; Dave Bartram. The Great Eight Competencies: A Criterion-Centric Approach to Validation. Article (PDF Available) in Journal of Applied Psychology 90(6):1185-203 · November 2005 with 8,728 Reads.; W.Hutmacher Key competencies for Europe//Report of the Symposium Bern, Switzerland 27-30 March, 1996. Council for Cultural Co-operation (CDCC) a Secondary Education for Europe. Strasburg, 1997.; Равен Дж. Компетентность в современном обществе: выявление, развитие и реализация. М.: 2002. (англ.1984).

[11] Hallinger, P. (2011), “Leadership for learning: Lessons from 40 years of empirical research”, Journal of Educational Administration, Vol. 49/2, pp. 125-142; Heck, R. H., Larsen, T. J., & Marcoulides, G. A. (1990). Instructional leadership and school achievement: Validation of a causal model. Educational Administration Quarterly, 26(2), 94–125.; Khaliq Ur Rehman Cheema, Iram Ali “Evaluation of Principal Performance in Public and Private Sector Schools” Article in Journal of Leadership & Organizational Studies September 2013.; Leithwood, K., Harris, A., and Hopkins, D. (2008). Seven strong claims about successful school leadership. School Leadership and Management, 28(1), 27-42.; Mercy Obianuju Nwogbo (Mrs.) Effectiveness of principals’ role performance in curriculum and instructional development in public secondary schools in anambra state. Unizik Journal of Educational Research and Policy Studies Vol.3; https://unijerps.org 2021 Impact Factor: 5.641; 2020 Impact Factor: 5.355. January-June, 2021.; Murphy, J.F., Goldring, E.B., Cravens, X.C., Elliott, S.N. The Vanderbilt Assessment of Leadership in Education: Measuring Learning-Centered Leadership. East China Normal University Journal/August 2007. – 38 p.; Knoop, R., & Common, R. W. (1985, May). A performance appraisal system for school principals. Paper presented at the Annual Meeting of the Canadian Society for the Study of Education, Montreal, Quebec, Canada.; Stronge, J.H. Principal Evaluation: Standards, Rubrics, and Tools for Effective Performance (E-Book). ISBN: 9781416615279. 2013-03-01. -160 p.

umumta’lim muassasalari rahbar kadrlarining boshqaruv kompetentligini rivojlantirish darajalarini takomillashtirish;

maktab ta’limi sifatini oshirish strategiyalarining samaradorligini aniqlashtirish.

Tadqiqotning obyekti umumta’lim muassasalari rahbar kadrlarining boshqaruv kompetentligini rivojlantirish vositasida ta’lim sifatini oshirish strategiyalarini takomillashtirish jarayoni tanlangan bo‘lib, pedagogik eksperimentda 11 ta hududdan jalb etilgan umumiy o‘rta ta’lim muassasalari direktori lavozimiga nomzodlar va amaldagi maktab direktorlaridan iborat “Menejerlik o‘quv kursi” tinglovchilaridan 244 nafar va 2251 nafar o‘quvchi ishtirok etgan.

Tadqiqotning predmetini umumta’lim muassasalari rahbar kadrlarining boshqaruv kompetentligini rivojlantirish vositasida ta’lim sifatini oshirish strategiyalarini rivojlantirishning shakl, metod, vositalari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida mavzuga oid pedagogik-psixologik, ilmiy-metodik, andragogik va menejment yo‘nalishidagi adabiyotlarni tizimli va qiyosiy tahlil qilish, diagnostika, kuzatish, so‘rovnoma, anketa, suhbat, modellashtirish, tajriba-sinov, ma’lumotlarni matematik-statistik qayta ishlash kabi nazariy, empirik uslublaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

umumta’lim muassasalari rahbarlarining boshqaruv kompetentligini rivojlantirish vositasida ta’lim sifatini oshirish strategiyalarining o‘quv natijalariga ta’siri latent omillarni identifikatsiyalash, miqdoriy diagnostik modellashtirish hamda integratsion dinamika asosida namoyon bo‘layotgan samaradorlikni miqdoriy-prognostik baholash orqali aniqlashtirilgan;

rahbarlarning kasbiy karyera pog‘onalari bilan uzviy bog‘liqlikda boshqaruv kompetensiyasini rivojlantirishning konseptual modeli kollaborativ tajriba maydonida shaxsiy salohiyatni faollashtirish va ichki xarizmatik quvvatni jamoaviy trayektoriyani boshqarishga yo‘naltira oladigan pedagogik texnologiyalarni joriy etishga ko‘ra milliy va xalqaro standartlarga muvofiq sifatini ta’minlash asosida takomillashtirilgan;

umumta’lim muassasalari rahbar kadrlarining mustaqil boshqaruv kompetensiyalarini va ta’lim sifatini oshirish muhitini tashkiliy-pedagogik mexanizmlari ta’lim jarayonlarini adaptiv boshqarish, sifat ko‘rsatkichlarini analitik diagnostikasiga ko‘ra prognozlash, pedagogik faoliyatni sinergetik koordinatsiyalash va ta’lim muhitini kognitiv-innovatsion salohiyatini va individual ta’lim trayektoriyalarini modellashtirish asosida ishlab chiqilgan;

umumta’lim muassasalari rahbar kadrlarining boshqaruv kompetentligini rivojlantirish darajalari adaptiv-klaster yondashuvga ko‘ra rahbarlik salohiyatini kognitiv, strategik va kommunikativ indikatorlar orqali bosqichli diagnostika etishning kompetensiyaviy yo‘nalishlari bazaviy, tizimli, integrativ va yetuklik bosqichlarini emergent rivojlantirish kontinuumlari asosida takomillashtirilgan;

maktab ta’limi sifatini oshirish strategiyalarining samaradorligi kompleks diagnostik tahlil, adaptiv monitoring va natijaviy indikatorlar integratsiyasiga ko‘ra pedagogik faoliyatning funksional dinamikasini analitik baholash, o‘quv natijalarini kognitiv-prognostik modellashtirish va strategiyalarning ijtimoiy-pedagogik

rezonansi funksional sifati va barqarorligi uyg‘unligini ta’minlash asosida aniqlashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilarda o‘z aksini topgan:

umumiy o‘rta ta’lim muassasalari direktori lavozimiga nomzodlarni hamda amaldagi maktab direktorlarini tayyorlashga qaratilgan “Menejerlik o‘quv kursi”ning o‘quv reja va dasturi ishlab chiqildi hamda ta’lim jarayonida samarali foydalanilmoqda;

Menejerlik o‘quv kurslarining amaliy topshiriqlarini baholash mezonlari hamda imtihon komissiyasini tashkil etish tartibi ishlab chiqilgan;

rahbar kadrlarning boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirish hamda ta’lim sifatini oshirish integratsiyalashgan mexanizmi ishlab chiqilgan;

umumta’lim muassasalari rahbarlarida zamonaviy boshqaruv kompetentligini rivojlantirishning konseptual modeli (№DGU:010031) ishlab chiqilgan;

“Umumta’lim muassasalarida ta’lim sifatini baholash va rivojlantirish jarayonlarini tashkil qilish” nomli trening dasturi ishlab chiqilgan (A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti huzuridagi Ilmiy-metodik Kengashning 2026-yil 4-iyundagi 6-sonli yig‘ilishi qarori bilan tasdiqlanib amaliyotga joriy etilgan);

“Ta’lim menejmenti” nomli darslik ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi huzuridagi O‘quv-metodik ishlarni ekspertizadan o‘tkazish hamda foydalanishga tavsiya etish bo‘yicha muvofiqlashtiruvchi kengashning 2026-yil 20-maydagi 7-son qaroriga asosan, 2026-yil 22-maydagi №85 raqamli guvohnomasi). Mazkur darslik ta’lim jarayonida samarali qo‘llanilmoqda.

“Ta’limda liderlik va o‘zgarishlarni boshqarish” nomli darslik ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi huzuridagi O‘quv-metodik ishlarni ekspertizadan o‘tkazish hamda foydalanishga tavsiya etish bo‘yicha muvofiqlashtiruvchi kengashning 2026-yil 20-maydagi 7-son qaroriga asosan, 2026-yil 22-maydagi №82 raqamli guvohnomasi). Mazkur darslik ta’lim jarayonida samarali qo‘llanilmoqda.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqot ishidagi ilmiy-nazariy yondashuvlar xorijiy va mahalliy tajribalar asosida qiyosiy tahlil qilingani, rasmiy manbalardan olingan ma’lumotlardan foydalanilgani, tajriba-sinov ishlari samaradorligi matematik-statistik tahlil usullari vositasida aniqlangani, xulosa va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilgani, olingan natijalar Intellektual mulk markazidan mualliflik huquqi olinganligi hamda vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan tavsiflanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati umumta’lim muassasalari rahbar kadrlarining boshqaruv kompetentligini rivojlantirish orqali ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan strategiyalarini tizimli, kompetensiyaviy va integrativ yondashuvlar asosida takomillashtirish, ta’lim menejmenti hamda pedagogik liderlik jarayonlarining mazmunini, tuzilmasi va o‘zaro integratsiyalashgan tarkibiy qismlari aniqlashtirilganligi, rahbarlarning strategik, tashkiliy hamda innovatsion

boshqaruv faoliyatini samarali rivojlantirishga qaratilgan konseptual yondashuvlar va mexanizmlarning ilmiy asoslanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan mexanizm va model asosida umumta’lim muassasalari rahbarlarining boshqaruv kompetentligini rivojlantirish, ta’lim sifatini oshirish hamda boshqaruv samaradorligini ta’minlashda “Menejerlik o‘quv kursi”ning takomillashtirilgan o‘quv dasturi, o‘quv-uslubiy ta’minoti, baholash mezonlari ishlab chiqilib, umumiy o‘rta ta’lim muassasalari direktori lavozimiga nomzodlarni hamda amaldagi maktab direktorlarini uzluksiz malaka oshirish jarayonini tashkil etishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tayyorlanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Umumta’lim muassasalari rahbar kadrlarining boshqaruv kompetentligini rivojlantirish vositasida ta’lim sifatini oshirish strategiyalari bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

umumta’lim muassasalari rahbarlarining boshqaruv kompetentligini rivojlantirish vositasida ta’lim sifatini oshirish strategiyalarining o‘quv natijalariga ta’siri latent omillarni identifikatsiyalash, miqdoriy diagnostik modellashtirish hamda integratsion dinamika asosida namoyon bo‘layotgan samaradorlikni miqdoriy-prognostik baholash orqali aniqlashtirishga oid takliflar O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 25-dekabrdagi “Davlat umumiy o‘rta ta’lim muassasalari direktori lavozimiga nomzodlarni menejerlik o‘quv kurslarida o‘qitish va ularga menejerlik sertifikatini berish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 681-son qarori loyihasini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining 2026-yil 21-maydagi 03-33-2635-son ma’lumotnomasi). Natijada “Menejerlik o‘quv kursi”ning o‘quv dasturlariga boshqaruv kompetentlikni rivojlantirish, ta’limdagi innovatsion jarayonlarni boshqarishga qaratilgan modullar kiritilgan;

rahbarlarning kasbiy karyera pog‘onalari bilan uzviy bog‘liqlikda boshqaruv kompetensiyasini rivojlantirishning konseptual modeli kollaborativ tajriba maydonida shaxsiy salohiyatni faollashtirish va ichki xarizmatik quvvatni jamoaviy trayektoriyani boshqarishga yo‘naltira oladigan pedagogik texnologiyalarni joriy etishga ko‘ra milliy va xalqaro standartlarga muvofiq sifatini ta’minlash asosida takomillashtirishga doir tavsiyalar “Ta’lim menejmenti” nomli darslik mazmuniga singdirilgan (O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining 2026-yil 21-maydagi 03-33-2635-son ma’lumotnomasi). Natijada rahbar kadrlarining kasbiy karerasini rivojlantirishning mazkur tuzilmasi umumta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining ko‘p bosqichli uzluksiz malaka oshirish tizimini ishlab chiqishda qo‘llanilgan.

umumta’lim muassasalari rahbar kadrlarining mustaqil boshqaruv kompetensiyalarini va ta’lim sifatini oshirish muhitini tashkiliy-pedagogik mexanizmlari ta’lim jarayonlarini adaptiv boshqarish, sifat ko‘rsatkichlarini analitik diagnostikasiga ko‘ra prognozlash, pedagogik faoliyatni sinergetik koordinatsiyalash va ta’lim muhitini kognitiv-innovatsion salohiyatini va individual ta’lim trayektoriyalarini modellashtirish asosida ishlab chiqishga oid takliflar O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 25-dekabrdagi “Davlat umumiy o‘rta ta’lim muassasalari direktori lavozimiga nomzodlarni menejerlik

o‘quv kurslarida o‘qitish va ularga menejerlik sertifikatini berish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 681-son qarori loyihasini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining 2026-yil 21-maydagi 03-33-2635-son ma’lumotnomasi). Natijada maktab boshqaruvida amaliy samaradorlik tizimlashtirildi va ta’lim sifatining barqarorligi ta’minlandi.

umumta’lim muassasalari rahbar kadrlarining boshqaruv kompetentligini rivojlantirish darajalari adaptiv-klaster yondashuvga ko‘ra rahbarlik salohiyatini kognitiv, strategik va kommunikativ indikatorlar orqali bosqichli diagnostika etishning kompetensiyaviy yo‘nalishlari bazaviy, tizimli, integrativ va yetuklik bosqichlarini emergent rivojlantirish kontinuumlari asosida takomillashtirishga doir tavsiyalar “Ta’limda liderlik va o‘zgarishlarni boshqarish” nomli darslik mazmuniga singdirilgan (O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining 2026-yil 21-maydagi 03-33-2635-son ma’lumotnomasi). Natijada rahbar kadrlarning boshqaruv qarorlarni qabul qilish hamda ta’lim jarayonida strategik va innovatsion boshqaruv elementlarini amaliy qo‘llash imkoniyati kengaygan.

maktab ta’limi sifatini oshirish strategiyalarining samaradorligi kompleks diagnostik tahlil, adaptiv monitoring va natijaviy indikatorlar integratsiyasiga ko‘ra pedagogik faoliyatning funksional dinamikasini analitik baholash, o‘quv natijalarini kognitiv-prognostik modellashtirish va strategiyalarning ijtimoiy-pedagogik rezonansi funksional sifati va barqarorligi uyg‘unligini ta’minlash asosida aniqlashtirishga doir tavsiyalar “Ta’lim menejmenti” nomli darslik mazmuniga singdirilgan (O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining 2026-yil 21-maydagi 03-33-2635-son ma’lumotnomasi). Natijada maktab boshqaruvi samaradorligini oshirish, ta’lim sifatini baholash va monitoring qilish tizimini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 24 ta ilmiy ish, jumladan, 1 ta monografiya, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 18 ta maqola, shulardan, 14 tasi respublika, 4 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to‘rt bob, adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Umumiy hajmi 291 sahifani tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiyaning dolzarbligi va zarurati asoslangan, muammoning o‘rganilganlik darajasi, ilmiy yangiligi, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi, tadqiqot usullari, maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti aniqlangan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati, amaliyotga joriy etilgani, aprobatsiyasi, nashr etilgan ishlar, dissertatsiyaning tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Umumta’lim muassasalari rahbar kadrlari**

boshqaruv kompetentligini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari” deb nomlangan birinchi bobida ta’lim muassasasi rahbarlarining boshqaruv kompetentligini rivojlantirish muammosining tarixiy-pedagogik tahlili, rahbar kadrlarining boshqaruv kompetentligini rivojlantirish tizimining mohiyati va tuzilmaviy xususiyatlari hamda rivojlanish tendensiyasi xalqaro amaliy tajribalar misolida boshqaruv kompetentligini rivojlantirishning zamonaviy yondashuvlari, respublikamiz umumta’lim muassasalari tizimida rahbar kadrlarni tayyorlash va kasbiy rivojlantirishning mavjud holati tahlil qilingan.

Ta’lim tizimini modernizatsiya qilish va uning raqobatbardoshligini oshirish sharoitida ta’lim muassasalari rahbarlarining boshqaruv kompetentligini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Rahbarning shaxsiy va kasbiy salohiyati ta’lim sifati natijalarini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Kompetensiyaviy yondashuv rahbarni nafaqat boshqaruvchi, balki strategik lider sifatida talqin etadi.


Mazkur tadqiqotda boshqaruv kompetentligining tarixiy shakllanish bosqichlari, uning nazariy-pedagogik asoslari hamda zamonaviy talablarga mos rivojlantirish mexanizmlari tahlil qilindi. Xalqaro tajriba asosida ta’lim sifati, inson kapitali va innovatsion rivojlanish o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik yoritilgan. Shuningdek, “kompetentlik” va “kasbiy kompetentlik” tushunchalarining mazmun-mohiyati ochib berilgan, ularning boshqaruv faoliyatidagi ahamiyati asoslangan.

Tadqiqotchi olimlar tahlillari shuni ko‘rsatadiki, “kompetentlik” tushunchasi zamonaviy pedagogik va boshqaruv nazariyasida turlicha yondashuvlar asosida berilgan ta’riflari qiyosiy tahlil qilindi (1-rasm). Ilmiy manbalarda kompetentlik shaxsning ichki salohiyati va tajribasi, boshqa yondashuvlarda esa faoliyatni samarali amalga oshirishga xizmat qiluvchi bilim, ko‘nikma va qobiliyatlar majmui sifatida izohlanadi. Shu bilan birga, kompetentlik dinamik, uzluksiz rivojlanib boruvchi jarayon bo‘lib, bilim, malaka, tajriba, qadriyat va motivatsiyaning integratsiyasi sifatida namoyon bo‘ladi.

Mazkur rasmda kompetentlik tushunchasining turli olimlar tomonidan talqin etilishi beshta asosiy yo‘nalish asosida tizimlashtirilgan bo‘lib, tadqiqotchilarning ilmiy qarashlari kompetentlikning ko‘p komponentli hamda integrativ pedagogik hodisa ekanligini nazariy va metodologik jihatdan asoslab berildi. Xususan:

Bilim va tajriba yo‘nalishi. Ushbu yo‘nalishda kompetentlik shaxsning nazariy bilimlari hamda amaliy tajribasining uyg‘unligi sifatida talqin etiladi. N.Muslimovning qarashlariga ko‘ra, kompetentlik o‘qitish jarayonida egallangan bilim, ko‘nikma va tajribalarni real faoliyatda samarali qo‘llay olish qobiliyatini ifodalaydi. Bu yondashuv kompetentlikning kognitiv-amaliy mohiyatini ochib beradi.

Malaka va ko‘nikma yo‘nalishi. Mazkur yo‘nalishda kompetentlik kasbiy malaka va amaliy ko‘nikmalar tizimi sifatida izohlanadi. A.Markova hamda L.Ponomaryov kompetentlikni professional faoliyatni samarali tashkil etishga xizmat qiluvchi malaka, mahorat va operatsion qobiliyatlar majmui sifatida tavsiflaydi. Ushbu yondashuvda faoliyat samaradorligi markaziy o‘rin egallaydi.



1-rasm. “ Kompetentlik” tushunchasiga berilgan ta’ riflarning qiyosiy tahlili.

(*Manba: Muallif tomonidan ilmiy tadqiqot natijalari asosida tuzildi.)*

Qadriyat va motivatsiya yo‘nalishi. Bu yo‘nalishda kompetentlikning aksiologik va motivatsion jihatlariga urg‘u beriladi. N.Kazakova, S.Shishov va I.Agarovlar kompetentlikni nafaqat bilim va ko‘nikmalar, balki shaxsning dunyoqarashi, qadriyatlari va kasbiy motivatsiyasi bilan bog‘liq integrativ sifat sifatida talqin etadilar. Bu esa kompetentlikning shaxsiy-ijtimoiy xarakterini namoyon qiladi.

Psixologik rivojlanish yo‘nalishi. I.Zimnyaya, V.Lebedev, A.Kasprjak L.Ivanova, A.Xutorskoy va A.Maxmudovlar kompetentlikni shaxsning ichki psixologik salohiyati, yashirin imkoniyatlari va individual rivojlanish jarayoni bilan bog‘laydi. Ushbu yondashuv kompetentlikni dinamik va rivojlanuvchi psixologik hodisa sifatida talqin etib, shaxsning o‘zini namoyon qilishi va refleksiv faoliyatiga alohida e’tibor qaratadi.

Shaxsiy sifatlar yo‘nalishi. S.Turg‘unov, B.Daniyorov va D.Otajonov hamda G.Selevkolar kompetentlikni fanlararo bilimlar, shaxsiy sifatlar, tajriba va faoliyat usullarining integratsiyasi sifatida izohlaydilar. Ularning fikricha, kompetentlik shaxsning muayyan vaziyatlarda samarali qaror qabul qilishi va muvaffaqiyatli faoliyat yuritishini ta’minlovchi kompleks integrativ sifatdir.

Yuqoridagi rasm tahlili shuni ko‘rsatadiki, kompetentlik tushunchasi zamonaviy pedagogikada faqat bilim yoki ko‘nikmalar yig‘indisi sifatida emas, balki bilim, malaka, qadriyat, motivatsiya, psixologik tayyorgarlik va shaxsiy sifatlarning o‘zaro integratsiyalashgan tizimi sifatida talqin qilinadi. Bu esa kompetensiyaviy yondashuvning ko‘p qirrali ilmiy-metodologik asosga ega ekanligini tasdiqlaydi.

Ilmiy manbalar tahlili hamda zamonaviy ta’lim muhiti xususiyatlarini inobatga olgan holda kompetentlik tushunchasiga quyidagi mualliflik ta’rifi ishlab chiqildi:

Kompetentlik - bu faoliyat jarayonida vaziyatni tahlil qilish, mavjud resurslarni muvofiqlashtirish hamda kutilgan natijaga erishishni ta’minlaydigan integrativ kasbiy salohiyatdir.

Tarixiy-pedagogik tahlil boshqaruv kompetentligining evolyutsiyasini ma’muriy boshqaruvdan zamonaviy pedagogik liderlik konsepsiyalariga o‘tish orqali izohlaydi. Zamonaviy yondashuvlarda boshqaruv kompetentligi strategik rejalashtirish, innovatsion boshqaruv, jamoani rivojlantirish, ta’lim sifatini baholash va samarali qaror qabul qilish kabi murakkab ko‘nikmalar tizimini qamrab oladi. Xalqaro tajribalar, jumladan pedagogik liderlik konsepsiyalari va xalqaro tashkilotlar tomonidan ishlab chiqilgan kompetensiya modellari, ta’lim rahbarlaridan strategik fikrlash, o‘qituvchilarni qo‘llab-quvvatlash, natijalarni tahlil qilish va resurslarni samarali boshqarishni talab etadi.

Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, rahbarning boshqaruv kompetentligiga oid yondashuvlar ko‘p qirrali bo‘lib, ular pedagogik liderlik, strategik boshqaruv va innovatsion rivojlanish tamoyillari bilan uzviy bog‘liq holda talqin etiladi. Xususan, T.Bush boshqaruv kompetentligini pedagogik liderlik doirasida izohlasa, M.Fullan o‘zgarishlarni boshqarish modeli orqali rahbarning moslashuvchanligi, innovatsiyalarni joriy etish va jamoa bilan hamkorlikda ishlash ko‘nikmalarini asoslaydi. Mahalliy tadqiqotchilardan R.Djurayev, S.Turg‘unov,


A.Ibragimov, R.Isyanov, M.Mirsaliyeva, N.Muslimov, D.Shadimetova, T.Shoymardonov, M.Baybayeva, N.Jo‘rayeva, M.Pardayeva, D.Temirov, E.Xudoyberdiyev, L.Sultonovalar esa boshqaruv kompetentligi kasbiy muammolarni samarali hal etish, strategik fikrlash, liderlik, innovatsion yondashuv hamda boshqaruv faoliyatini baholash mexanizmlarini takomillashtirish bilan izohlagan.

Shuningdek, boshqaruv kompetentligi rejalashtirish, tashkil etish, muvofiqlashtirish va nazorat kabi asosiy funksiyalarni samarali amalga oshirish bilan tavsiflanadi. Zamonaviy tadqiqotlar rahbar kompetentligining bilim, ko‘nikma, xulq-atvor va munosabatlar integratsiyasi sifatida shakllanishini hamda XXI asr talablariga muvofiq transformatsiyalanayotganini ko‘rsatadi. Natijada, boshqaruv kompetentligi pedagogik, psixologik, innovatsion va strategik komponentlarni o‘z ichiga olgan kompleks tizim sifatida e’tirof etilib, ta’lim jarayonida yuzaga keladigan muammolarni samarali hal etish va ta’lim sifatini oshirishning muhim omili sifatida asoslanadi.

Yuqoridagi ilmiy manbalar tahlili va zamonaviy ta’lim muhiti talablari asosida rahbar kadrlarning boshqaruv kompetentligiga quyidagi mualliflik ta’rifini keltirdik: boshqaruv kompetentligi – kasbiy faoliyatdagi real vaziyatlarda uchraydigan pedagogik muammo va vazifalarning samarali yechimini ta’minlaydigan metodik yondashuvlar, zamonaviy menejment texnologiyalari, pedagogik-psixologik diagnostika (so‘rov, individual va guruhiy intervyu) usullari, samarali boshqaruv muloqotini tashkil etish, sog‘lom psixologik muhitni ta’minlash, vaziyatga mos pedagogik uslublarni qo‘llash, vaqt menejmentini samarali amalga oshirish, kichik guruhlar va liderlik jarayonlarini boshqarish hamda asoslangan taktik va strategik qarorlar qabul qilish kabi kompetensiyalar integratsiyasidir.

Ilmiy tadqiqot tahlillari asosida umumta’lim maktablari rahbarlarining kasbiy va boshqaruv kompetentligini qiyosiy mezonlar asosida baholash imkonini beruvchi yondashuv ishlab chiqildi (2-rasm). Mazkur mezonlar rahbarlik faoliyatining mazmun-mohiyatini ochib berish, boshqaruv jarayonidagi samaradorlikni aniqlash hamda kompetentlik darajasini obyektiv baholashga xizmat qiladi.

Tahlillar natijalariga ko‘ra, ko‘plab davlatlarda maktab rahbarlarini tayyorlash va qo‘llab-quvvatlash tizimlari yetarli emasligi, yetakchilikning asosiy yo‘nalishlari (strategik yo‘l belgilash, o‘rganishga yo‘naltirish, hamkorlik va jamoani rivojlantirish) bo‘yicha kurslar yetishmayotgani qayd etilgan. Bu esa rahbarlarning kompetentligini oshirish uchun kompleks tizimni rivojlantirish zaruratini ko‘rsatadi. Tadqiqot jarayonida OECDning TALIS hamda School Leadership for Learning hisobotlari o‘rganildi. Ushbu tahlillar natijasiga ko‘ra maktab direktorlarining rollari sezilarli darajada kengaygan bo‘lib, ular nafaqat ma’muriy boshqaruvchi, balki pedagogik va taqsimlangan liderlar sifatida ham faoliyat yuritishi lozimligi qayd etilgan. Bu yondashuv o‘quv jarayonini samarali boshqarish, strategik maqsadlarni belgilash, jamoaviy hamkorlikni yo‘lga qo‘yish hamda o‘qituvchilarning kasbiy rivojlanishiga tizimli ko‘maklashishni o‘z ichiga oladi.



2-rasm. Umumta’lim maktablari rahbarlarining kasbiy va boshqaruv kompetentligini qiyosiy tavsifi.

***(Manba:** Muallif tomonidan ilmiy tadqiqot natijalari asosida tuzildi)*

UNESCO Global Education Monitoring Report 2024 ta’lim yetakchiligi bo‘yicha analitik sharhida rahbarlarning kompetensiyalari o‘quv natijalari va ta’lim tizimining muvaffaqiyati bilan bevosita bog‘langanligi qayd etilgan.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida rahbar boshqaruv kompetentligining yetarli darajada shakllanmaganligi o‘quv jarayonining sifati, pedagoglar faoliyati va o‘quvchilarning ta’lim natijalariga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu bois, rahbarlarning boshqaruv kompetentligini rivojlantirish, uning ta’lim sifati bilan o‘zaro bog‘liqligini ilmiy asosda o‘rganish va tahlil qilish zamonaviy pedagogika fanining muhim muammolaridan biri sanaladi.

Singapur, Janubiy Koreya, Yaponiya va Finlyandiya tajribasi asosida maktab rahbarlari kompetentligini rivojlantirish strategiyalari qiyosiy tahlil qilindi. Tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, ushbu mamlakatlarda direktorlik lavozimi an’anaviy ma’muriy boshqaruvdan ko‘ra ta’lim sifati va o‘qitish jarayonini rivojlantirishga yo‘naltirilgan kasbiy rahbarlik instituti sifatida shakllangan.

Tadqiqot natijalari Respublikamiz ta’lim tizimi uchun maktab rahbarlarini tayyorlash va rivojlantirishda kompetensiyalarni aniq belgilash, tayyorlashni amaliy faoliyat bilan integratsiya qilish hamda lavozimdan keyingi qo‘llab-quvvatlashni tizimlashtirish zarurligini ko‘rsatadi. Shu nuqtai nazardan, “Menejerlik sertifikati” tizimi rahbarlar tayyorgarligini institutlashtirish va boshqaruv sifatini oshirishning muhim tashkiliy asosi sifatida baholanadi.

Tadqiqot doirasida empirik va nazariy natijalar sintezi asosida zamonaviy maktab yetakchiligiga xos kompetensiyalar tizimlashtirildi. Jumladan, ta’limiy yetakchilik, emotsional intellekt, strategik tafakkur va o‘zgarishlarni boshqarish, raqamli yetakchilik, inklyuziv yondashuv, professional rivojlanish, inson resurslarini boshqarish, transformatsion hamda inqiroz sharoitidagi yetakchilik kompetensiyalari muhim komponentlar sifatida asoslandi.

Natijada, umumta’lim muassasalari rahbarlari kompetentligini rivojlantirishga qaratilgan ilmiy asoslangan strategiyalar ishlab chiqildi hamda ularning tarkibiy tuzilmasi va ta’lim sifatiga ta’siri tahlil qilindi (1-jadval).

Mazkur bobda umumta’lim muassasalari rahbar kadrlari boshqaruv kompetentligini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari tarixiy-pedagogik, tizimli hamda qiyosiy tahlil asosida yoritilgan. O‘rganishlar shuni ko‘rsatdiki, rahbarlik kompetentligini rivojlantirish muammosi ta’lim sifati bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, u pedagogika, menejment va ta’limni boshqarish nazariyalarining kesishgan nuqtasida shakllangan kompleks ilmiy yo‘nalish hisoblanadi.

Tadqiqot jarayonida tarixiy-pedagogik tahlil rahbarlik kompetentligining evolyutsion rivojlanishini aniqlash imkonini berdi. Dastlab rahbar faoliyati asosan ma’muriy-boshqaruv funksiyalari bilan cheklangan bo‘lsa, zamonaviy bosqichda u strategik liderlik, innovatsion boshqaruv, ta’lim sifatini monitoring qilish va jamoani rivojlantirish kabi ko‘p qirrali kompetensiyalar majmuasiga aylangan.

1-jadval

Umumta’lim muassasalarida rahbar kompetentligini rivojlantirish strategiyalari*

Kompetentlik turi	Mazmuni	Rivojlantirish strategiyalari	Kutilayotgan natija
Boshqaruv	Ta’lim muassasasini samarali boshqarish, qaror qabul qilish va strategik rejalashtirish qobiliyati	Strategik reja tuzish, boshqaruv treninglari, monitoring va baholash tizimini joriy etish	Ta’lim jarayonining tizimliligi, natijadorlikning oshishi
Pedagogik	Ta’lim jarayonini metodik jihatdan to‘g‘ri tashkil etish va pedagoglarni qo‘llab-quvvatlash	Metodik seminarlar, ilg‘or tajribalarni joriy etish, pedagogik tahlil	O‘qitish sifati va o‘quvchilar bilim darajasining oshishi
Kommunikativ	Jamoa, o‘quvchilar va ota-onalar bilan samarali muloqot o‘rnatish	Jamoaviy boshqaruv, kommunikativ treninglar, hamkorlik muhitini yaratish	Ijobiy psixologik muhit, jamoaning faolligi
Innovatsion	Ta’limda innovatsion va raqamli texnologiyalarni joriy etish qobiliyati	Raqamli texnologiyalarni o‘zlashtirish, innovatsion loyihalar	Zamonaviy ta’lim muhitining shakllanishi
Refleksiv	O‘z faoliyatini tahlil qilish va takomillashtirish qobiliyati	O‘z-o‘zini baholash, refleksiya, kasbiy rivojlanish rejalari	Boshqaruv faoliyatining uzluksiz takomillashuvi
Ijtimoiy-psixologik	Jamoa motivatsiyasi va liderlik qobiliyatlarini namoyon etish	Motivatsion mexanizmlar, liderlik treninglari	Pedagoglar faolligi va mas’uliyatining oshishi

***(Manba:** Muallif tomonidan ilmiy tadqiqot natijalari asosida tuzildi.)*

Mazkur bob doirasida respublikamiz umumta’lim muassasalari tizimida rahbar kadrlarni tayyorlash va ularning kasbiy rivojlantirish jarayonining mavjud holati tizimli va kompleks yondashuv asosida tahlil qilindi. Xususan, maktab direktorlarini kasbiy rivojlantirish tizimining evolyutsion taraqqiyoti ilmiy asosda davrlashtirilib, uni to‘rt bosqichga ajratish orqali har bir bosqichning mazmun-mohiyati, institutsional xususiyatlari hamda rivojlanish dinamikasi ochib berildi.

Tadqiqot jarayonida har bir bosqich kesimida rahbar kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirish tizimining normativ-huquqiy asoslari, o‘quv dasturlarining tuzilishi, metodik ta’minoti hamda baholash mexanizmlari qiyosiy-tahliliy usulda o‘rganildi. Natijada tizimning rivojlanish tendensiyalari, uzluksizlik va izchillik darajasi, shuningdek, mavjud muammolar va kelajakdagi istiqboli yo‘nalishlari aniqlashtirilgan.

Tadqiqot doirasida olib borilgan tahlillar asosida maktab direktorlarini kasbiy rivojlantirish tizimining har bir bosqichiga xos ijobiy va salbiy jihatlar ilmiy asosda umumlashtirildi. Xususan, dastlabki bosqichlarda huquqiy poydevorning yaratilgani, keyingi bosqichlarda tizimlilik va uzluksizlikning ta’minlangani, so‘nggi bosqichlarda esa kompetensiyaga asoslangan yondashuv va raqamli texnologiyalarning joriy etilgani asoslab berildi. Shu bilan birga, amaliy yo‘naltirilgan treninglarning yetishmasligi, baholash va monitoring tizimining sustligi, individual rivojlanish yondashuvlarining cheklanganligi kabi tizimli muammolar aniqlab berildi.

Shuningdek, bob doirasida rahbar kadrlarning zamonaviy boshqaruv faoliyatiga qo‘yilayotgan talablar kontekstida ularning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish zarurati ilmiy-nazariy jihatdan asoslangan. Ta’lim menejmenti, liderlik, raqamli boshqaruv va ijtimoiy hamkorlik kabi yo‘nalishlarda kompetensiyalarni shakllantirishning ustuvorligi dalillandi.

Tahlil natijalariga tayangan holda muallif tomonidan rahbar kadrlarni kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy xulosalar ishlab chiqildi. Jumladan, kompetensiyaviy yondashuvni chuqurlashtirish, baholash indikatorlarini ilmiy asosda ishlab chiqish, individual rivojlanish trayektoriyalarini joriy etish hamda amaliy trening va mentorlik mexanizmlarini kengaytirish zarurligi asoslab berildi.

Ilmiy adabiyotlar, dissertatsiyalar va avtoreferatlar tahlili rahbarlik kompetentligini rivojlantirish ta’lim sifatini oshirishning muhim omili sifatida e’tirof etilishini ko‘rsatdi. Ayniqsa, kompetensiyaviy yondashuv asosida rahbarning kasbiy va boshqaruv salohiyatini uzluksiz rivojlantirish ta’lim natijadorligiga sezilarli ta’sir ko‘rsatishi asoslab berildi.

Mazkur bobda boshqaruv kompetentligini rivojlantirish tizimining mohiyati tizimlilik, uzluksizlik, integrativlik va natijaviylik tamoyillari asosida ochib berilgan. Mazkur tizim maqsadli komponent (ijtimoiy buyurtma va ta’lim sifatiga qo‘yilgan talablar), mazmuniy komponent (kasbiy va boshqaruv kompetensiyalari majmui), jarayonli komponent (rejalashtirish, tashkil etish, rahbarlik va nazorat funksiyalari), shuningdek, natijaviy komponent (ta’lim sifati, samaradorlik, innovatsion rivojlanish)dan iborat yaxlit tuzilmani tashkil etadi. Bu esa rahbar kompetentligini rivojlantirishni oddiy malaka oshirish jarayoni emas, balki strategik boshqaruv mexanizmi sifatida talqin qilish zarurligini ko‘rsatadi.

Xalqaro tajribalar tahlili (OECD, UNESCO, Singapur, Koreya, Shanxay va boshqa ilg‘or ta’lim tizimlari) rahbarlik kompetentligini rivojlantirish global ta’lim siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri ekanligini tasdiqladi. OECD tavsiyalarida maktab rahbarlari o‘quv natijalariga ta’sir ko‘rsatuvchi muhim omil

sifatida qayd etilgan bo‘lsa, Singapur va Koreya tajribasida rahbarlarni saralash, tayyorlash va attestatsiyadan o‘tkazishning qat’iy tizimi yo‘lga qo‘yilgan. Shanxay modelida esa rahbarlar faoliyatining samaradorligi o‘quvchilarning xalqaro baholash dasturlaridagi (PISA, TIMSS) natijalari bilan uzviy bog‘langan. Ushbu tajribalar rahbarlik kompetentligini rivojlantirishda uzluksiz professional rivojlanish, mentorlik instituti, tarmoq asosida o‘rganish va natijaga yo‘naltirilgan baholash mexanizmlarining ahamiyatini ko‘rsatadi.

Boshqaruv kompetentligini rivojlantirishga ta’sir etuvchi ichki va tashqi omillar tizimli ravishda tahlil qilindi. Ichki omillar sifatida rahbarning shaxsiy fazilatlari, kasbiy tayyorgarligi darajasi, tashkilot ichki muhitining sifati, moddiy-texnik ta’minoti hamda raqamli infratuzilmaning rivojlanganlik holati ajratib ko‘rsatildi. Davlat siyosati, normativ-huquqiy hujjatlar, milliy strategiyalar, attestatsiya tartiblari, oliy ta’lim muassasalari bilan hamkorlik, ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar hamda jamoatchilik talablari kabi tashqi omillar esa ilmiy asoslangan holda tizimlashtirilib, ularning boshqaruv kompetentligini rivojlantirishga ko‘rsatadigan ta’siri kompleks tarzda yoritilgan.

Umuman olganda, mazkur bob doirasida amalga oshirilgan nazariy va qiyosiy tahlillar natijalari umumta’lim muassasalari rahbar kadrlari boshqaruv kompetentligini rivojlantirish ta’lim sifatini oshirishning muhim strategik omili ekanligini asoslab berilgan. Tadqiqotda rahbarlik kompetentligini rivojlantirish tizimini ilmiy asoslangan, tizimli va natijaga yo‘naltirilgan mexanizm sifatida shakllantirish zarurligi aniqlashtirilgan. Shuningdek, mazkur yondashuv ta’lim muassasalarining raqobatbardoshligini ta’minlash, innovatsion rivojlanish jarayonlarini jadallashtirish hamda milliy ta’lim tizimini xalqaro standartlarga yaqinlashtirishga xizmat qilishi ilmiy jihatdan asoslangan.

Dissertatsiyaning **“Umumta’lim muassasalari rahbarlari boshqaruv kompetentligini rivojlantirish vositasida ta’lim sifatini oshirish konsepsiyasi”** deb nomlangan ikkinchi bobida umumta’lim muassasalari rahbarlarining boshqaruv kompetentligini rivojlantirish orqali ta’lim sifatini oshirish masalalari tizimli ravishda tahlil qilindi. Tadqiqot jarayonida rahbarlarning boshqaruv kompetentligining mazmuni va mohiyati ochib berildi hamda unga ta’sir etuvchi ichki va tashqi omillar aniqlashtirildi. Jumladan, ta’lim tizimidagi institutsional o‘zgarishlar, raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi, boshqaruv jarayonlarining modernizatsiyasi, shuningdek, ta’lim muassasalaridagi tashkiliy muhit, rahbarlarning kasbiy tayyorgarligi va boshqaruv tajribasi muhim omillar sifatida e’tirof etildi.

R.Ahlidinov, Sh.Qurbonov, E.Seytxalilov, M.Sharifxo‘jayev, Yo.Abdullayev, G‘.Qosimov, R.Djurayev, S.Turg‘unov, Ya.Ismadiyarov, G.Alimova, D.Bartram, Richard E.Boyatzis, S.Taylor va R.Thorpe kabi olimlarning ta’lim sifatini boshqarish, uni baholash hamda sifatni oshirishga doir konseptual yondashuvlari qiyosiy-tahliliy jihatdan o‘rganildi.

Mazkur ilmiy qarashlar hamda zamonaviy ta’lim muhitining transformatsion talablari umumlashtirilgan holda, “ta’lim sifatini oshirish strategiyalari” tushunchasiga quyidagicha mualliflik ta’rifi ishlab chiqildi: Ta’lim sifatini

oshirish strategiyalari - bu ta’lim tizimining mazmuniy, metodik, texnologik va tashkiliy-boshqaruv komponentlarini o‘zaro uyg‘un holda rivojlantirishga qaratilgan, raqamli ta’lim muhitining xususiyatlari va kompetensiyaviy yondashuv talablarini hisobga olgan holda, ta’lim oluvchilarning bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarini izchil va barqaror shakllantirishni ta’minlovchi, ilmiy asoslangan hamda istiqbolga yo‘naltirilgan kompleks boshqaruv choralar tizimi hisoblanadi.

Keltirilgan mazkur jihatlar asosida umumta’lim muassasalari rahbarlari boshqaruv kompetentligini rivojlantirishning akmeologik aspektlari va shart-sharoitlarini o‘rganish, shuningdek, umumta’lim muassasalarining mazkur jarayondagi imkoniyatlari diagnostikasi xulosalariga tayanib, maktab rahbarining boshqaruv kompetentligini rivojlantirish mazmuni quyidagi darajalarda kechishi aniqlandi (2-jadval).

Empirik tadqiqotlar natijalari umumta’lim muassasalari rahbarlarining boshqaruv kompetentligini baholash imkonini berib, ularning strategik boshqaruv, kommunikativlik, innovatsion faoliyat, analitik fikrlash hamda jamoa bilan ishlash kabi kompetensiyalarini rivojlantirish zarurligini ko‘rsatdi. Tadqiqot jarayonida olingan natijalar rahbarlarning kasbiy kompetensiyalari ta’lim muassasasida ta’lim sifati, boshqaruv samaradorligi va jamoa faoliyatining natijadorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatishini tasdiqladi.

Tadqiqot natijalari maktab rahbarlarining turli kompetensiyalari ularning boshqaruv faoliyati samaradorligining asosiy ko‘rsatkichlari bilan ijobiy va o‘rtacha darajadagi statistik bog‘liqlikka ega ekanligini ko‘rsatadi. Bu esa maktab rahbarlarining kasbiy kompetensiyalari oshib borishi bilan ularning boshqaruv faoliyati samaradorligi ham ortishini tasdiqlaydi.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablari rahbarlarining boshqaruv kompetentligini aniqlash maqsadida kompleks empirik tadqiqot o‘tkazildi. Tadqiqot kompetensiyaviy yondashuv va aralash metodologiya (mixed-methods) asosida tashkil etilib, nazariy tayanch sifatida kompetensiya modellari va natijaga yo‘naltirilgan boshqaruv konsepsiyalari qabul qilindi.

Empirik tadqiqotda strukturaviy so‘rovnoma (Likert shkalasi), yarim strukturaviy suhbat, kuzatuv, test sinovlari, portfel tahlili hamda 360° baholash usullaridan foydalanildi. Tadqiqot tavsifiy-korrelyatsion dizaynga asoslanib, respublikaning turli hududlaridan 44 nafar maktab rahbarlari qatlamli tasodifiy tanlash asosida jalb etildi. Ma’lumotlar T-test, Pearson korrelyatsiya koeffitsiyenti va regressiya tahlili yordamida qayta ishlangan.

Empirik tadqiqot tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, respondentlarning jinsi bo‘yicha taqsimoti erkaklar 40 foizni, ayollar esa 60 foizni tashkil etadi. Shu bilan birga, ayollar kategoriyasi eng yuqori foizga ega bo‘lib, erkaklar esa eng past foizni egallaydi. Yosh bo‘yicha, 46 dan 60 yoshgacha bo‘lgan guruh 53,3 foiz bilan dominant bo‘lib, 25 dan 35 yoshgacha eng past foiz - 4,4 foizni tashkil etdi. Ta’lim darajasi bo‘yicha bakalavr darajali maktab rahbarlari 60 foiz bilan eng yuqori ko‘rsatkichni qayd etgan bo‘lsa, eng past foiz – 40 foiz magistr darajasiga tegishli bo‘ldi.

2-jadval

Maktab rahbarining boshqaruv kompetentligini rivojlantirish darajalari (bosqichlar kesimida)*

Kompetensiya yo‘nalishi	I-bosqich Bazaviy (adaptiv)	II-bosqich Funksional (tizimli)	III-bosqich Strategik-integrativ	IV-bosqich Akmeologik (yetuklik)
Normativ-huquqiy kompetensiya	Qonun va me’yoriy hujjatlarni biladi, yo‘riqnoma asosida ish yuritadi	Hujjatlarni amaliy vaziyatga mos qo‘llaydi, ichki tartiblarni ishlab chiqadi	Me’yoriy bazani strategik rejalashtirish bilan uyg‘unlashtiradi	Huquqiy risklarni prognoz qiladi, compliance madaniyatini shakllantiradi
Strategik va innovatsion kompetensiya	Rivojlanish rejalarini tayyorlashda ishtirok etadi	O‘rta muddatli reja va loyihalarni boshqaradi	Uzoq muddatli strategiyani ishlab chiqadi va KPI asosida amalga oshiradi	Innovatsion portfelni shakllantiradi, dalillarga asoslangan qarorlar orqali transformatsiyani boshqaradi
Pedagogik liderlik kompetensiyasi	Dars kuzatuvi va metodik nazoratni amalga oshiradi	O‘qituvchilar faoliyatini muvofiqlashtiradi, ichki sifat nazoratini yo‘lga qo‘yadi	Professional o‘quv hamjamiyatini (PLC) rivojlantiradi, ta’lim sifatini tizimli oshiradi	Ta’lim sifati ekotizimini yaratadi, akmeologik o‘sishni qo‘llab-quvvatlaydi
Raqamli boshqaruv kompetensiyasi	AKT vositalaridan foydalanadi	Elektron hujjat aylanishi va LMS platformalarni boshqaradi	Analitik dashboardlar va monitoring tizimlari orqali boshqaradi	Sun’iy intellekt va prediktiv analitika asosida qarorlar qabul qiladi
Kommunikativ va ijtimoiy kompetensiya	Ota-onalar va jamoa bilan muntazam muloqot qiladi	Konfliktlarni konstruktiv hal etadi, hamkorlik aloqalarini kengaytiradi	Tarmoqli (network) hamkorlik va ijtimoiy sheriklikni rivojlantiradi	Institutsional brend va ijtimoiy kapitalni shakllantiradi
Tahliliy va refleksiv kompetensiya	Faoliyat natijalarini oddiy tahlil qiladi, o‘z ishiga dastlabki baho beradi	Ta’lim jarayoni natijalarini tizimli tahlil qiladi va refleksiya asosida xulosalar chiqaradi	Analitik yondashuv asosida qarorlar qabul qiladi va rivojlanish strategiyalarini takomillashtiradi	Metarefleksiya asosida innovatsion yechimlar ishlab chiqadi va boshqaruv samaradorligini oshiradi

***Manba:** *Muallif tomonidan ilmiy tadqiqot natijalari asosida tuzilgan.*

Maktab rahbari sifatida xizmat qilgan yillik ish tajribasi bo‘yicha eng ko‘p respondentlar – 6 yil va undan ortiq tajribaga ega bo‘lganlar bo‘lib, ularning ulushi 60,2 foizni tashkil etdi. Bunga qarama-qarshi ravishda, xizmat yillari bo‘yicha eng past ko‘rsatkich – 2 yil va undan kam xizmat qilganlar bo‘lib, ulushi 15,5 foizni tashkil etdi. Tadqiqot doirasida maktab rahbarlarining kompetensiyalari (ta’limiy nazorat, kasbiy rivojlanish, hamkorlik, o‘zgarishlarni boshqarish, maqsadlarga erishish, jamoani muvofiqlashtirish va raqamli kompetensiyalar), liderlik amaliyotlari hamda ish faoliyati o‘rtasidagi bog‘liqlik o‘rganildi. Shuningdek, respondentlarning demografik ko‘rsatkichlari asosida kompetensiyalar farqi tahlil qilindi.

Natijalar maktab rahbarlarining boshqaruv kompetentligini rivojlantirish ularning ish samaradorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatishini tasdiqladi. Korrelyatsion va regressiya tahlillari asosida kompetensiyalar, liderlik amaliyotlari va faoliyat natijalari o‘rtasida sezilarli ijobiy bog‘liqlik mavjudligi aniqlandi (3-jadval).

Olingan ma’lumotlar shuni ko‘rsatdiki, maktab rahbarlarining o‘quv jarayonini nazorat qilish, kasbiy rivojlanish amaliyoti, hamkorlik qobiliyati, o‘zgarishlarni boshqarish, maqsadlarga erishish, jamoani muvofiqlashtirish hamda raqamli resurslardan foydalanish kabi kompetensiyalari ularning strategik rahbarlik qilish, maktab faoliyati va resurslarini boshqarish, ta’lim va o‘qitish jarayoniga e’tibor qaratish, o‘zini va boshqalarni rivojlantirish hamda hamkorlik aloqalarini yo‘lga qo‘yish ko‘rsatkichlari bilan ijobiy va statistik jihatdan ahamiyatli bog‘liqlikka ega ekanligi aniqlangan.

Natijalar maktab rahbarlarining kompetensiyalari bilan ularning faoliyat samaradorligi o‘rtasidagi bog‘liqlik Pirson korrelyatsiya koeffitsiyenti (r) va p-qiymat orqali tahlil qilingan. $p \leq 0.05$ bo‘lganda natija statistik jihatdan ahamiyatli deb hisoblanadi va nol gipoteza rad etiladi.

Tahlil natijalariga ko‘ra, o‘quv jarayonini nazorat qilish kompetensiyasi maktab rahbarlarining strategik rahbarlik qilish ($r=0.42$; $p=0.001$), maktab faoliyati va resurslarini boshqarish ($r=0.38$; $p=0.003$), o‘zini va boshqalarni rivojlantirish ($r=0.35$; $p=0.005$) hamda hamkorlik aloqalarini yo‘lga qo‘yish ($r=0.31$; $p=0.01$) ko‘rsatkichlari bilan ijobiy va statistik ahamiyatli bog‘liqlikka ega ekanligi aniqlandi.

Kasbiy rivojlanish amaliyoti kompetensiyasi esa ta’lim va o‘qitish jarayoniga e’tibor qaratish ($r=0.33$; $p=0.004$) va o‘zini va boshqalarni rivojlantirish ($r=0.29$; $p=0.02$) ko‘rsatkichlari bilan sezilarli bog‘liqlikni namoyon etdi.

Shuningdek, hamkorlik qobiliyati kompetensiyasi strategik rahbarlik qilish ($r=0.36$; $p=0.002$), maktab faoliyati va resurslarini boshqarish ($r=0.34$; $p=0.004$) hamda hamkorlik aloqalarini yo‘lga qo‘yish ($r=0.44$; $p=0.001$) bilan ijobiy bog‘liqlikka ega ekanligi kuzatildi.

O‘zgarishlarni boshqarish kompetensiyasi esa strategik rahbarlik qilish ($r=0.28$; $p=0.02$), ta’lim jarayoniga e’tibor qaratish ($r=0.37$; $p=0.003$) va o‘zini rivojlantirish ($r=0.32$; $p=0.01$) ko‘rsatkichlari bilan ahamiyatli bog‘langan.

3-jadval.

Maktab rahbarlarining kompetensiyalari va ularning faoliyati o‘rtasidagi bog‘liqlikni tekshirish*

Maktab rahbarlarining faoliyat samaradorligi															
Maktab rahbarlarining kompetensiyalari	Strategik rahbarlik qilish			Maktab faoliyati va resurslarini boshqarish			Ta’lim va o‘qitish jarayoniga e’tibor qaratish			O‘zini va boshqalarni rivojlantirish			Hamkorlik aloqalarini yo‘lga qo‘yish		
Kichik o‘lcham (subo‘lcham) yoki **quyi yo‘nalish** O‘zgaruvchilar	Pirson korrelyatsiya koeffitsiyenti	p-qiymat (ahamiyatlilik darajasi)	H_0 (nol gipoteza) bo‘ yicha qaror	Pirson korrelyatsiya koeffitsiyenti	p-qiymat (ahamiyatlilik darajasi)	H_0 (nol gipoteza) bo‘ yicha qaror	Pirson korrelyatsiya koeffitsiyenti	p-qiymat (ahamiyatlilik darajasi)	H_0 (nol gipoteza) bo‘ yicha qaror	Pirson korrelyatsiya koeffitsiyenti	p-qiymat (ahamiyatlilik darajasi)	H_0 (nol gipoteza) bo‘ yicha qaror	Pirson korrelyatsiya koeffitsiyenti	p-qiymat (ahamiyatlilik darajasi)	H_0 (nol gipoteza) bo‘ yicha qaror
O‘quv jarayonini nazorat qilish	0.42	0.001	Rad etildi	0.38	0.003	Rad etildi	0.18	0.07	Rad etilmadi	0.35	0.005	Rad etildi	0.31	0.01	Rad etildi
Kasbiy rivojlanish amaliyoti	0.12	0.11	Rad etilmadi	0.16	0.06	Rad etilmadi	0.33	0.004	Rad etildi	0.29	0.02	Rad etildi	0.14	0.09	Rad etilmadi
Hamkorlik qobiliyati	0.36	0.002	Rad etildi	0.34	0.004	Rad etildi	0.09	0.21	Rad etilmadi	0.17	0.06	Rad etilmadi	0.44	0.001	Rad etildi
O‘zgarishlarni boshqarish	0.28	0.02	Rad etildi	0.15	0.08	Rad etilmadi	0.37	0.003	Rad etildi	0.32	0.01	Rad etildi	0.11	0.14	Rad etilmadi
Maqsadlarga erishish	0.19	0.06	Rad etilmadi	0.41	0.001	Rad etildi	0.27	0.02	Rad etildi	0.13	0.12	Rad etilmadi	0.39	0.002	Rad etildi
Jamoani muvofiqlashtirish	0.33	0.005	Rad etildi	0.08	0.25	Rad etilmadi	0.17	0.07	Rad etilmadi	0.43	0.001	Rad etildi	0.3	0.01	Rad etildi
Raqamli resurslardan foydalanish	0.14	0.09	Rad etilmadi	0.36	0.003	Rad etildi	0.31	0.01	Rad etildi	0.1	0.18	Rad etilmadi	0.16	0.06	Rad etilmadi

***(Manba:** Muallif tomonidan ilmiy tadqiqot tahlil natijalari asosida tuzildi.)*

Umuman olganda, natijalar maktab rahbarlarining turli kompetensiyalari ularning boshqaruv faoliyati samaradorligining asosiy ko‘rsatkichlari bilan ijobiy va o‘rtacha darajadagi statistik bog‘liqlikka ega ekanligini ko‘rsatadi. Bu esa maktab rahbarlarining kasbiy kompetensiyalari oshib borishi bilan ularning boshqaruv faoliyati samaradorligi ham ortishini tasdiqlandi.

Shuningdek, tadqiqot davomida ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan boshqaruv strategiyalarining konseptual modeli ishlab chiqildi (3-rasm). Mazkur model rahbarlarning boshqaruv kompetentligini tizimli rivojlantirishga qaratilgan bo‘lib, unda strategik rejalashtirish, innovatsion boshqaruv, pedagogik jarayonni samarali tashkil etish, inson resurslarini boshqarish hamda monitoring va baholash mexanizmlari o‘zaro integratsiyalashgan holda aks ettirildi.


Ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan boshqaruv strategiyalarining konseptual modeli umumta’lim muassasalarida boshqaruv faoliyatini tizimli, maqsadga yo‘naltirilgan va samarali tashkil etishga xizmat qiluvchi muhim nazariy asos hisoblanadi. Mazkur model ta’lim muassasasi rahbarlarining boshqaruv kompetentligini rivojlantirish, pedagogik jamoa faoliyatini muvofiqlashtirish, resurslardan oqilona foydalanish hamda ta’lim jarayonini strategik rejalashtirish orqali ta’lim sifatini oshirish imkonini beradi. Shu bilan birga, model rahbarlarning boshqaruv qarorlarini ilmiy asoslashga hamda ta’lim jarayonining natijadorligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Umuman olganda, olib borilgan tahlillar umumta’lim muassasalari rahbarlarining boshqaruv kompetentligini rivojlantirish ta’lim sifatini oshirishning muhim omillaridan biri ekanligini ko‘rsatdi. Shu bois, rahbarlarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan ilmiy asoslangan model va strategiyalarni amaliyotga joriy etish ta’lim tizimida boshqaruv samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Dissertatsiyaning **“Boshqaruv kompetentligini rivojlantirish orqali ta’lim sifatini oshirishning strategik yo‘nalishlari”** deb nomlangan uchinchi bobida maktab tizimida strategik boshqaruvni modernizatsiyalash jarayonida raqamli boshqaruv vositalaridan foydalanishning ilmiy-nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilindi. Shuningdek, ta’lim tizimini raqamlashtirish asosida strategik rejalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish yo‘llari o‘rganildi hamda ilg‘or xorijiy tajribalar asosida qiyosiy tahlil amalga oshirildi.

Tadqiqot jarayonida maktab tizimida rivojlanish strategiyalarini raqamli asosda rejalashtirishning zamonaviy yondashuvlari ilmiy-nazariy jihatdan asoslandi. Yillik va uzoq muddatli strategik rejalarni elektron platformalarda shakllantirish mexanizmlari o‘rganildi hamda ularning boshqaruv samaradorligiga ta’siri tahlil qilindi.

Shuningdek, EMIS (Ta’limni boshqarish axborot tizimi), e-Maktab va boshqa raqamli platformalar orqali strategik rejalashtirish jarayonlarini avtomatlashtirish imkoniyatlari yoritildi. Ushbu tizimlar asosida ta’lim muassasalarining rivojlanish strategiyalari ma’lumotlarga tayangan holda ishlab chiqilishi ilmiy jihatdan asoslandi.



3-rasm. Umumta'lim muassasalari rahbarlarida zamonaviy boshqaruv kompetentligini rivojlantirishning konseptual modeli

Tadqiqotda o‘quvchilar natijalari, o‘qituvchilarning pedagogik faoliyati samaradorligi hamda ta’lim jarayonining umumiy ko‘rsatkichlarini raqamli hisobotlar asosida tahlil qilish masalalari o‘rganildi. EMIS, e-Maktab va Business Intelligence (BI) tizimlari orqali shakllantiriladigan ma’lumotlar bazasi asosida boshqaruv qarorlarini qabul qilish mexanizmlari ilmiy-nazariy jihatdan asoslandi.

Raqamli hisobot tizimlari yordamida maktab faoliyatining monitoringi, natijalarni solishtirma tahlil qilish hamda muammoli hududlarni aniqlash imkoniyatlari tahlil qilindi.

Tadqiqotda “Katta ma’lumotlar” (Big data) texnologiyalari va ta’lim natijalarini tahlil qilish vositalarining maktab boshqaruvidagi o‘rni o‘rganib chiqildi. Katta hajmdagi ta’lim ma’lumotlarini qayta ishlash orqali o‘quvchilarning individual rivojlanish trayektoriyasini aniqlash va prognozlash imkoniyatlari tahlil qilindi.

Shuningdek, learning analytics asosida o‘quv jarayonidagi real vaqt ma’lumotlarini tahlil qilish orqali strategik qarorlar qabul qilish samaradorligi ilmiy jihatdan asoslandi. Ushbu yondashuv ta’lim jarayonini reaktiv emas, balki proaktiv boshqarish imkonini berishi yoritildi. Yuqorida o‘rganilgan ilmiy adabiyotlardan kelib chiqqan holda maktabni raqamli boshqaruv strategiyasini ishlab chiqishga qodir bo‘lgan va uni amaliyotda muvaffaqiyatli joriy etuvchi maktab direktorlarning boshqaruvni raqamlashtirish bilim va ko‘nikmalarini tizimlashtiruvchi raqamli maktab lideri tuzilmasi ishlab chiqildi (4-rasm).



4-rasm. To‘rt qismli “Raqamli maktab lideri tuzilmasi”

Ilmiy izlanishlar shuni ko‘rsatadiki, maktab rahbarining raqamli liderlikdagi vazifalarini tasniflash nafaqat texnologiyalarni joriy etish jarayonini yengillashtiradi, balki butun ta’lim tizimining barqaror raqamli rivojlanishiga xizmat qiladi.

Mazkur tadqiqot doirasida Singapurning Student Learning Space (SLS) - School Cockpit, Janubiy Koreyaning Milliy ta’lim axborot tizimi (NEIS) hamda Estoniyaning e-Kool raqamli ta’lim boshqaruv tizimlari maktablarni strategik raqamli boshqarishni takomillashtirish bo‘yicha asosiy ilmiy tahlil obyektlari sifatida o‘rganildi va qiyosiy jihatdan tahlil qilindi.

Singapur tajribasi asosida maktab boshqaruvini yagona raqamli platforma orqali amalga oshirish, real vaqt rejimida monitoring qilish va strategik qarorlar qabul qilish jarayonini avtomatlashtirish imkoniyatlari tahlil qilindi.

Janubiy Koreya NEIS tizimi orqali ta’lim jarayonining barcha bosqichlarini integratsiyalashgan boshqaruv asosida tashkil etish mexanizmlari yoritildi hamda uning samaradorligi ilmiy jihatdan asoslandi.

Estoniya e-Kool tizimi esa maktab, oila va davlat o‘rtasidagi raqamli hamkorlikni rivojlantirish orqali ta’lim jarayonining shaffofligini oshirishi tahlil qilindi va uning ilg‘or tajribasi o‘rganildi.

Xorijiy davlatlar tajribasini o‘rganish natijasida umumta’lim maktablarini raqamli vositalar orqali strategik boshqarish imkoniyatlarini tahlil qilishda TOWS matritsasi metodologik asos sifatida qo‘llanildi. TOWS matritsasi SWOT tahlil natijalariga asoslanadi (4-jadval).

4-jadval

SWOT tahlili asosida TOWS tahlili

	Imkoniyatlar (O)	**Tahdidlar (T)**
Kuchli tomonlar (S)	**SO strategiyalari (kuch–imkoniyat):** - Singapurdagi *School Cockpit*ning analitik bazasidan foydalangan holda O‘zbekistonda o‘quvchilar yutuqlarini prognozlash tizimini yaratish. - Koreyaning *NEIS* tizimidagi yagona platforma modelidan foydalanib, O‘zbekiston maktablarini integratsiyalashgan boshqaruv tizimiga ulash. - Estoniyaning *e-Kool* tajribasi asosida ota-ona–maktab hamkorligini mustahkamlash orqali ta’lim sifatini oshirish.	**ST strategiyalari (kuch–tahdid):** - Kuchli analitik va kommunikatsion tizimlar yordamida kiberxavfsizlikni kuchaytirish (masalan, *School Cockpit*dagi qat’iy monitoring usullari). - Yagona tizim orqali maktablar o‘rtasidagi imkoniyatlar tafovutini kamaytirish. - Ota-onalar bilan faol kommunikatsiya orqali inson omilini saqlab qolish va tizimga ishonchni oshirish.
Zaif tomonlar (W)	**WO strategiyalari (zaiflik–imkoniyat):** - O‘qituvchilarning raqamli savodxonligini oshirish orqali xalqaro tajribani samarali moslashtirish. - Yuqori xarajatlarni kamaytirish uchun bosqichma-bosqich joriy etish modeli. - Ma’lumotlar xavfsizligi bo‘yicha xalqaro standartlarni qo‘llash orqali tizimning zaif tomonlarini bartaraf etish.	**WT strategiyalari (zaiflik–tahdid):** - Yuqori infratuzilma xarajatlarini kamaytirish maqsadida davlat–xususiy hamkorlik mexanizmlarini joriy etish. - O‘qituvchilarni doimiy o‘qitish orqali inson omilining susayishini oldini olish. - Ma’lumotlar xavfsizligi va kiberhujumlar xavfini kamaytirish uchun milliy darajada muhofaza tizimini yaratish.

TOWS matritsasi asosida to‘rtta strategik yo‘nalish ajratiladi: WT (zaif tomonlar va tahdidlarni minimallashtirish), WO (zaif tomonlarni kamaytirib, imkoniyatlarni maksimal darajada foydalanish), ST (kuchli tomonlar orqali

tahdidlarni kamaytirish) va SO (kuchli tomonlar va imkoniyatlarni birgalikda rivojlantirish). Mazkur model SWOT tahlil natijalariga tayangan holda ichki (kuchli va zaif tomonlar) hamda tashqi (imkoniyatlar va tahdidlar) omillar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni tizimli ravishda baholash imkonini beradi.

Tadqiqotda TOWS matritsasi maktablarni raqamli boshqarish tizimlarini tahlil qilishda muhim metod sifatida asoslandi. Xususan, xorijiy raqamli ta’lim boshqaruvi tizimlarida mavjud kuchli tomonlar va rivojlanish imkoniyatlari integratsiyasi orqali strategik samaradorlikni oshirish, shuningdek, texnologik va infratuzilmaviy zaifliklarni kamaytirish yo‘llari ilmiy jihatdan tahlil qilindi.

Natijada, TOWS matritsasi maktab boshqaruv tizimlarini strategik baholashda ichki va tashqi omillarni o‘zaro bog‘liq holda tahlil qilish hamda raqamli transformatsiya sharoitida optimal boshqaruv strategiyalarini ishlab chiqish imkonini beruvchi muhim ilmiy-metodik vosita sifatida asoslandi.

Mazkur tadqiqot natijalari asosida umumta’lim muassasalari rahbarlarining boshqaruv kompetentligini mustaqil rivojlantiruvchi ta’lim muhitini tashkil etish mexanizmi ishlab chiqildi (5-rasm). Ushbu mexanizm rahbar kadrlarning kasbiy va shaxsiy kompetensiyalarini tizimli rivojlantirish, boshqaruv faoliyatini takomillashtirish hamda ta’lim sifatini oshirishga yo‘naltirilgan kompleks yondashuv sifatida asoslandi.

Mexanizmda umumiy o‘rta ta’lim muassasalari rahbar kadrlari boshqaruv kompetentligini rivojlantirishning tizimli va bosqichma-bosqich mexanizmi yoritilgan bo‘lib, u kompetensiyaviy yondashuv asosida shakllantirilgan.


Tahlil jarayonida rahbar kadrlarning kasbiy va shaxsiy kompetensiyalarini rivojlantirish o‘zaro integratsiyalashgan tizim sifatida ko‘rib chiqilgan.

Dastlab, rahbar kadrlarning boshqaruv kompetentligini rivojlantirishda kasbiy va shaxsiy kompetensiyalar o‘zaro bog‘liq komponentlar sifatida ilmiy jihatdan asoslangan. Ushbu kompetensiyalar ta’lim muassasasi samarali boshqaruvini ta’minlovchi asosiy omil sifatida talqin qilingan.

Mexanizmning keyingi bosqichida boshqaruv kompetentligini rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari - tamoyillar, usullar, resurslar va tashkiliy elementlar tizimi tahlil qilingan. Bunda innovatsionlik, uzviylik, tizimlilik, samaradorlik va muvofiqlik tamoyillari ilmiy jihatdan asoslanib, rahbar kadrlar faoliyatining metodologik bazasi sifatida belgilangan.

Shuningdek, kompetensiyalarni rivojlantirish jarayonida treninglar, mentorlik, coaching, rotatsiya va seminarlar kabi usullar samarali vosita sifatida o‘rganilgan. Bu usullar rahbarlarning boshqaruv salohiyatini oshirishga va amaliy kompetensiyalarni rivojlantirishga xizmat qilishi tahlil qilingan.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarini boshqaruvni rivojlantiruvchi ta’lim muhitini tashkil etish mexanizmining markaziy qismi sifatida “karyera pog‘onalariga asoslangan rivojlanish” konsepsiyasi taklif etilgan bo‘lib, unda rahbarlik va pedagogik faoliyat o‘zaro integratsiyalashgan tizim sifatida ilmiy asoslangan. O‘qituvchi pedagogik faoliyat va rahbarlik kabi vertikal rivojlanish bosqichlari kompetensiyaviy o‘sishning mantiqiy davomi sifatida ko‘rib chiqilgan.



5-rasm. Boshqaruv kompetentligini mustaqil rivojlantiruvchi ta’lim muhitini tashkil etish mexanizmi

Mazkur tizimda pedagogik faoliyat, rahbarlik yo‘nalishlari o‘zaro bog‘liq holda tahlil qilinib, ularning har biri rahbarlik kompetentligini shakllantirishda muhim bosqich ekanligi asoslangan.

Shuningdek, diagnostika bosqichida kompetensiyalarni aniqlash va ularni ta’lim sifati bilan bog‘liqligini tahlil qilish masalalari o‘rganilgan. Regulyativ bosqichda esa olingan natijalar asosida boshqaruv faoliyatini takomillashtirish choralari ishlab chiqilishi ilmiy jihatdan asoslangan.

Dissertatsiyaning **“Rahbar kadrlar boshqaruv kompetentligini rivojlantirish strategiyalari samaradorligi”** deb nomlangan to‘rtinchi bobida tajriba-sinov ishlari mazmuni va natijalari bayon etilgan.

Mazkur bobda umumta’lim muassasalari rahbar kadrlarining boshqaruv kompetentligini rivojlantirish orqali ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan ilmiy-amaliy modelning samaradorligi tajriba-sinov ishlari asosida yoritilgan. Tadqiqot tizimli, ilmiy asoslangan va bosqichma-bosqich yondashuv asosida tashkil etildi.

Tajriba-sinov ishlari uch asosiy bosqichda amalga oshirildi: aniqlovchi, shakllantiruvchi hamda nazorat-umumlashtiruvchi bosqichlar. Aniqlovchi bosqichda rahbarlarning mavjud boshqaruv kompetentligi darajasi diagnostik vositalar orqali baholandi. Natijalar asosida tajriba va nazorat guruhlari shakllantirildi. Shakllantiruvchi bosqichda ishlab chiqilgan strategiyalar, pedagogik shart-sharoitlar va metodik ta’minot tajriba guruhida amaliyotga joriy etildi, nazorat guruhida esa an’anaviy faoliyat davom ettirildi. Yakuniy bosqichda natijalar qiyosiy-statistik tahlil qilinib, samaradorlik ilmiy asosda isbotlandi.

Rahbarlarning boshqaruv kompetentligini baholash uchun ko‘p o‘lchovli tizim ishlab chiqildi. Unda strategik rejalashtirish, pedagogik rahbarlik, kommunikatsiya va hamkorlik, o‘zini boshqarish hamda innovatsion fikrlash kabi asosiy kompetensiyalar mezon sifatida belgilandi.

Tajriba-sinov ishlari respublikamizning turli hududlaridan tanlab olingan umumta’lim muassasalari direktorlari ishtirokida tashkil etildi. Tadqiqot jarayoniga jami 244 nafar rahbar xodimlar jalb etildi (2024-yilda 124 nafar, 2025-yilda 120 nafar). Ishtirokchilar an’anaviy statistik tahlil tamoyillariga ko‘ra ikki guruhga ajratildi. Bunda tadqiqot obyekti sifatida yangi boshqaruv usullarini o‘rgatishga tayangan holda o‘qitilgan tajriba guruhi (TG) va an’anaviy malaka oshirish yondashuvlari asosida tahsil olgan nazorat guruhi (NG) sifatida belgilab olindi.

Tadqiqotning dastlabki bosqichi, ya’ni 2024-yilda o‘tkazilgan tajriba-sinov ishlarida jami 124 nafar maktab direktori ishtirok etgan bo‘lib ulardan 64 nafari tajriba guruhida,


60 nafari esa nazorat guruhda respondent sifatida jalb etildi. Tajriba boshida (avvalida) va tajriba so‘nggida olingan natijalar dinamikasi quyidagi jadvalda o‘z aksini topgan (5-jadval).

5-jadval

2024-yilgi tajriba-sinov ishlari natijalari (chastotalar taqsimoti)

Yil	Guruhlar	Vaqt	Jami (N)	Yuqori (3 ball)	O‘rta (2 ball)	Past (1 ball)
2024	**Tajriba guruhi**	Tajriba avvalida	64	16	35	13
		Tajriba so‘nggida	64	27	36	1
	Nazorat guruhi	Tajriba avvalida	60	14	30	16
		Tajriba so‘nggida	60	8	39	13

Tajriba-sinov natijalarini o‘zida birlashtirgan jadvaldagi raqamli ma’lumotlariga tayangan holda dastlabki statistik tahlilni amalga oshiramiz. Tajriba avvalidagi holatga e’tibor qaratsak, tajriba guruhida past darajali ko‘rsatkichga ega bo‘lganlar 13 nafarni (20,2%) tashkil etgan bo‘lsa, tajriba so‘nggida bu ko‘rsatkich keskin kamayib, atigi 1 nafarni (1,6%) tashkil etdi. Aksincha, yuqori darajaga ega rahbarlar soni 16 nafardan 27 nafarga ortdi. Bu tajriba guruhida sifat o‘zgarishi yuz berganligidan dalolat beradi (6-rasmga qarang).



6-rasm. 2024-yilgi tajriba-sinov ishlari diagrammasi

Shu bilan bir vaqtda, nazorat guruhida sezilarli ijobiy siljish kuzatilmadi. Xususan, past darajali ishtirokchilar soni tajriba boshida 16 nafar bo‘lgan bo‘lsa, tajriba oxirida 13 nafarni tashkil etdi. Bu holat an’anaviy malaka oshirish yondashuvlari asosida tahsil olgan holda boshqaruv ko‘nikmalarining rivojlanish dinamikasi emasligini ko‘rsatadi.

Tajriba-sinov jarayonlari 2025-yilda takror o‘tkazildi. Bunda olingan natijalarning tasodifiy emasligini va metodikaning barqarorligini tekshirish maqsadi belgilangan bo‘lib tajriba-sinov ishlari yakuniy bosqich sifatida qayta tashkil etildi. Ushbu bosqichda jami 120 nafar direktor (60 nafari tajriba guruhida, 60 nafari nazorat guruhlarida) qamrab olindi. Natijalar quyidagi jadvalda keltirilgan (6-jadval).

6-jadval.

2025-yilgi tajriba-sinov ishlari natijalari (chastotalar taqsimoti)

Yil	Guruhlar	Vaqt	Jami (N)	Yuqori (3 ball)	O‘rta (2 ball)	Past (1 ball)
2025	**Tajriba guruhi**	Tajriba avvalida	60	13	31	16
		Tajriba so‘nggida	60	27	30	3
	Nazorat guruhi	Tajriba avvalida	60	14	29	17
		Tajriba so‘nggida	60	15	37	8

2025-yilgi ma’lumotlar tahlili shuni ko‘rsatdiki, tajriba boshlanishida har ikkala guruh deyarli teng imkoniyatlarga ega bo‘lgan. Xususan, past darajali natija ko‘rsatgan respondentlar soni tajriba guruhida 16 nafar, nazorat guruhida esa 17 nafarni tashkil etdi. Biroq, tajriba yakuniga kelib vaziyat tubdan o‘zgardi. Tajriba guruhida past ko‘rsatkichga ega respondentlar 81% ga kamayganligi (3 nafar), yuqori ko‘rsatkichlilar esa 107% ko‘rsatkichlarda (13 tadan 27 taga) ortganligi ko‘rinadi (7-rasmga qarang). Tajriba-sinov jarayonida o‘rtacha arifmetik qiymatlar dinamikasini ko‘rib chiqiladi. Bunda tajriba guruhining tajriba avvalida:


$$\bar{X}_{TA} = \frac{13 \cdot 3 + 31 \cdot 2 + 16 \cdot 1}{60} = \frac{39 + 62 + 16}{60} = \frac{117}{60} = 1.95$$

Hamda tajriba so‘nggidagi qiymatlari aniqlandi.

$$\bar{X}_{TS} = \frac{27 \cdot 3 + 30 \cdot 2 + 3 \cdot 1}{60} = \frac{81 + 60 + 3}{60} = \frac{144}{60} = 2.40$$

O‘rtacha arifmetik qiymatlar dinamikasidagi o‘sish farqi $\Delta = 2.40 - 1.95 = +0.45$ ballni tashkil etganligi hamda $\bar{X}_{TA} < \bar{X}_{TS}$ farq mos ravishda $1.95 < 2.40$ tasdiqlanganligini ko‘rish mumkin.


Tajriba-sinov jarayonlarining 2025-yil natijalari shuni tasdiqladiki, tajriba guruhi va nazorat guruhi aynan bir xil boshlang‘ich nuqtadan (1.95 ball) harakatni boshlagan bo‘lsa-da, tajriba yakunida tajriba guruhi 0.45 ballga o‘sib, 2.40 ko‘rsatkichni qayd etdi. Nazorat guruhida esa o‘sish minimal darajada (0.16 ball) ekanligi aniqlandi.



7-rasm. 2025-yilgi tajriba-sinov ishlari diagrammasi

Yuqoridagi natijalar asosida shuni xulosa qilish mumkinki matematik tahlillarga tayanib 2024 va 2025-yillarda o‘tkazilgan tajriba-sinov ishlarida tajriba guruhlari o‘zlashtirish ko‘rsatkichlarining o‘rtacha qiymati bo‘yicha nazorat guruhlaridan farqli ustunlikka erishganligini ta’kidlash mumkin. Shuningdek, o‘rtacha ballar dinamikasida ham ikki yillik tajriba-sinov jarayonlari natijalarida (tajriba so‘nggida) nazorat guruhlarida 2.02, tajriba guruhlarida 2.41 ballni ko‘rsatdi.

Bundan ko‘rinib turibdiki, so‘nggi bosqichda tajriba guruhlarida o‘rtacha ko‘rsatkich nazorat guruhlariga nisbatan katta 80,3% > 67,3%, ekanligi, ta’lim samaradorligi 13% ga teng ekanligi ma’lum bo‘ladi. Ushbu o‘sish suratini o‘rtacha ballar dinamikasining diagrammasida ham ko‘rish mumkin (8-rasmga qarang).



8-rasm. O‘rtacha ballar dinamikasi

Tajriba guruhlaridagi “Past” darajani olgan respondentlarning keskin kamayishi va “Yuqori” darajali respondentlarning ortishi kuzatilgan bo‘lsa, nazorat guruhlarida bu jarayon turg‘un xarakterga ega bo‘ldi.

Ushbu olingan natijalarning tasodifiy emasligini, balki statistik nuqtai nazaridan ahamiyatli ekanligini isbotlash, shuningdek, tajriba va nazorat guruhlari o‘rtasidagi tafovutning statistik jihatdan ishonchliligini tekshirish maqsadida biz matematik statistikaning parametrik va no-parametrik mezonlariga murojaat qildik.

Ushbu tahlillar ikki yo‘nalishda amalga oshiriladi. Dastlab Styudentning t-mezoni (Student’s t-test) yordamida guruhlarning o‘rtacha o‘zlashtirish darajalari o‘rtasidagi farqning ishonchliligi tekshiriladi. Keyingi bosqichda Pirsonning χ^2 (Hi-kvadrat) mezoni yordamida guruhlardagi sifat o‘zgarishlari (o‘zlashtirish darajalari taqsimotidagi siljishlar) tahlil qilindi.

7-jadval.


O‘quvchilarning o‘zlashtirish ko‘rsatkichlarining statistik tahlili

Ball	Tajriba avvalida (nafar)	Tajriba avvalida (%)	Tajriba so‘nggida (nafar)	Tajriba so‘nggida (%)	Farq (nafar)
1	412	18,5%	43	1,9%	-369
2	95	4,3%	27	1,2%	-68
3	120	5,4%	114	5,1%	-6
4	263	11,8%	296	13,1%	+33
5	384	17,3%	481	21,4%	+97
6	312	14,0%	459	20,4%	+147
7	289	13,0%	390	17,3%	+101
8	333	15,0%	395	17,5%	+62
9	16	0,7%	46	2,0%	+30
Jami	**2 224**	**100,0%**	**2 251**	**100,0%**	**+27**

Shu bilan birga, maktab direktorining boshqaruv kompetentligini rivojlantirish strategiyalarining samaradorligini aniqlash maqsadida 2024-yil va 2025-yil davomida Menejerlik kurslarida tajriba sinov ishlarida ishtirok etgan 244 nafar maktab direktorlarining maktablaridan ta’lim sifatiga ta’siri o‘rganildi (7-jadvalga qarang). 2224 nafar o‘quvchi kirish testini, 2251 nafar o‘quvchilar esa chiqish testini topshirishdi. O‘quvchilar bilimini baholash uchun muammoli topshiriqlarga asoslangan testlar ishlab chiqildi. Testlar real hayotiy vaziyatlarga asoslangan bo‘lib, kognitiv jarayonlarning barcha darajalarini qamrab oldi.

9-rasmdan ko‘rinib turibdiki, tajriba avvalidagi ($\overline{Y}$) qiymatlar va tajriba so‘ngidagi ($\overline{X}$) uchun tanlanma modal qiymatlari mos ravishda tajriba so‘ngidagi qiymatlar uchun $\overline{X}>\overline{Y}$ shartlarni qanoatlantirishini oldindan ko‘rish mumkin.

Xulosa sifatida, ishlab chiqilgan boshqaruv kompetentligini rivojlantirish strategiyalari rahbarlarning menejerlik va liderlik salohiyatini o‘rtacha 19% ga oshirganligi, o‘quvchilar bilim ko‘rsatkichlari esa 21% ga yaxshilanganligi statistik jihatdan asoslab berildi.



9-rasm. O‘quvchilarning o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari dinamikasi

Bu esa boshqaruv sifati ta’lim sifati bilan uzviy bog‘liq ekanligini hamda zamonaviy boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirish zarurligini ilmiy jihatdan tasdiqlaydi.

XULOSA

Mazkur dissertatsiya doirasida umumta’lim muassasalari rahbar kadrlari boshqaruv kompetentligini rivojlantirish orqali ta’lim sifatini oshirish muammosi kompleks, tizimli va ko‘p darajali ilmiy yondashuv asosida tadqiq etilgan. Xususan,

1. Boshqaruv kompetentligini rivojlantirish tizimining mohiyati tizimlilik, uzluksizlik, integrativlik va natijaviylik tamoyillari asosida ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Mazkur tizim maqsadli, mazmuniy, jarayonli va natijaviy komponentlarning o‘zaro uzviy bog‘liqligi asosida shakllanib, rahbar kompetentligini rivojlantirishni strategik boshqaruv mexanizmi sifatida talqin etish zarurati isbotlangan.

